

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT FARMASEVTIKA INSTITUTI

FARMATSEVTIK BOTANIKA

fanidan farmatsevtika instituti farmatsiya fakulteti talabalari uchun
o'quv – uslubiy qo'llanma

2 - qism

Toshkent – 2019

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

Toshkent farmasevtika instituti

“Tasdiqlayman”
o'quv va tarbiyaviy ishlari
bo'yicha prorektor, prof.
Yuldashev Z.A.

“___” 2019 y.

Farmatsevtik botanika

fanidan farmatsiya fakulteti talabalari uchun
o'quv – uslubiy qo'llanma

Toshkent – 2019

Tuzuvchilar:

M.T.Yulchieva – Toshkent farmasevtika instituti
farmakognoziya kafedrasи dotsenti, b.f.n.

N.T.Atamuratova – Toshkent farmasevtika instituti
farmakognoziya kafedrasи katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

I.V.Belolipov – Toshkent Davlat Agrar Universiteti
Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik va botanika kafedrasи
b.f.d. professori

A.A.Nurmuhamedov – Toshkent farmasevtika instituti
tibbiy va biologik fanlar kafedrasи q.f.n, dotsenti

Farmatsevtik botanika fanining o'quv – uslubiy qo'llanma Markaziy uslubiy kengashining 2019 yil “_” – son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi _____ Z.A.Yuldashev

Farmatsevtik botanika fanining o'quv – uslubiy qo'llanma institut Kengashining 2019 yil “_” – son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga va tavsiya etildi.

Ilmiy kengash kotibi _____ V.R.Xaydarov

Mavzu: Tuban sporali o`simliklar. Suv o`tlari

1. Darsning mazmuni:

Tuban o`simliklar-Tallobionta

Tuban o`simliklar bir hujayrali, koloniyali va tallofit o`simliklardir. Tallofitlarning tanasi tallom ko`p hujayrali tuzilma bo`lib, barg, poya va ildizlarga ajralmagan hamda haqiqiy to`qimaga ega bo`lmagan o`simliklardir.

Ba`zi tuban o`simliklarda masalan zamburug`lar, bakteriyalarda xlorofill bo`lmaydi va ular fotosintez jarayonini bajara olmaydi. Bunaqa organizmlarni geterotrof, ya`ni tayyor organik moddalar hisobiga oziqlanadi. Oziqlanishiga ko`ra geterotrof organizmlar saprofit yoki parazitlarga bo`linadi. Tuban o`simliklarga: Suv o`tlari (Algae), zamburug`lar (Mucophyta), Lishayniklar (Lichenophyta) va Bakteriyalar (Bacteriophyta)ga klassifikatsiyalanadi.

Suv o`tlar –Algae

Tuban o`simliklarning suvda, nam joylarda va tuproqda hayot kechiruvchi organizmlarga suv o`tlar deb ataladi. Suv o`tlar hujayralarida xlorofill bo`lishi bilan bakteriyalardan farq qiladi. Xlorofill bo`lganligi tufayli suv o`tlar avtotrof o`simliklar hisoblanadi, ya`ni ular karbonat angidridni assimilyasiyalash va fotosintez jarayonida organik moddalarni hosil qilish hisobiga mustaqil yashay oladilar.

Suv o`tlari tanasining tuzilishi jihatidan qat tanali o`simliklar jumlasiga kiradi. Shu bilan birga bir hujayrali, koloniyali va ko`p hujayrali suv o`tlari ham bo`ladi. Suv o`tining hujayra qobig`i sellyulozadan tashkil topgan bo`ladi. Ba`zi suv o`tlarning hujayra qobig`iga har xil moddalar singigan bo`ladi, masalan ko`k - yashil suv o`tining po`sti pektin moddasi bilan, diatom suv o`tlarida qumtuproq (kremnezem), xara suv o`tlarida esa karbon kislota tuzi bo`ladi. Suv o`tlari hujayrasi ichida protoplazma hujayra shirasi va ko`k yashil suv o`tlaridan tashqari yadro bo`ladi. Hujayra yadrosining miqdori suv o`ti turiga qarab har xil bo`ladi. Bir yadroli, ko`p yadroli va yadrosiz hujayralari mavjud. Suv o`tlar uch xil yo`l bilan ko`payadi: vegetativ, jinssiz va jinsiy usullarda.

Suv o`tlarda xloroplastlar to`planadigan qismiga xromotofor deb ataladi. Xromotoforlarda xlorofilidan tashqari boshqa pigmentlari ham uchraydi. Shu pigmentlar hisobiga suv o`tlar tasniflanadi, ya`ni ko`k - yashil, yashil, diatom,qizil, qo`ng`ir suv o`tlarni o`z ichiga oladi.

Ko`k yashil suv o`tlari – Cyanophyceae bo`limi tanasining tuzulishi jihatidan bir hujayrali yoki koloniyali bo`lib yashaydigan organizmlar. Bu o`simliklarga yashil rang beruvchi xlorofill va ko`k rang beruvchi fikotsian pigmentlar paydo bo`ladi. Ularda yaxlit yadro bo`lmasdan, sochilgan holatda yadro moddasi bo`ladi. Oddiy bo`linish yo`li bilan ko`payadi. Noqulay sharoitga tushganda spora hosil qiladi. Ko`k yashil suv o`tlarini o`rganish uchun–ipsimon tuzulishga ega bo`lgan Ossilatoriya (ossilatoriya), Lingbiya (Lyngbia), koloniyalilarga nostok (Noctok) suv o`tlari kiradi.

Yashil suv o`tlari – Chlorophyceae bo`limi tanasining tuzulishida xlorofill pigmenti bo`lib, ular bir hujayrali, koloniyalı bo`lib yashaydigan organizmlar. Yashil suv o`tlari vegetativ, jinssiz va noqulay sharoit tug`ilganda jinsli yo`l bilan ya`ni koopulatsiya va kon`yugatsiya usulida ko`payadi.

Yashil suv o`tlari 3 sinfga bo`linadi.

- a) chin yashil suv o`tlari – Euchlophyceae
- b) konyugantlar – Conigotae
- v) Xaralar – Charae

Xaralarga xara suv o`tlari misol bo`la oladi

Diatom suv o`tlari–Diatomae. Bir hujayrali, koloniyalı organizmlar. Ular oqar suvlarda, ko`lmak suvlarda, tuproqda uchraydi. Ular uchun xarakterli belgi po`stining 2 qavatlari bo`lishi. Tashqi qavat gil tuproqli va ichki qavat pektinlidir. Tanasining tashqi qavati 2 palladan iborat bo`lib, tashqi epiteka, ichki gipoteka qavatlari bir – birini qoplab turadi. Xramataforlarida diatomin pigmenti sariq rangni beradi. Hujayra oddiy vegetativ, jinsli yo`l bilan ko`payadi

Qo`ng`ir suv o`tlari – Phaeophyta. Ko`p hujayrali dengiz o`simliklari. Xramataforlarida fukoksantin pigmenti bo`lib, qo`ng`ir rang beradi. Qong`ir suv o`tlarning tallomi xilma- xil shaklli, tuzulishi jihatidan birmuncha yuksak o`simliklarga o`hshab ketadi. Ularning tanasi murakkab tuzilgan bo`lib, ayrimlarida “ildiz, poya, barg” kabi organlarni eslatadi. Qo`ng`ir suv o`tlari vegetativ, jinssiz, jinsli yo`l bilan ko`payadi. Ularga –laminariya, fokus kabi vakillar kiradi.

Qizil suv o`tlari - Rhodophyta. Ko`p hujayrali, tallomli oddiy yoki tarmoqlangan ip, plastinka va poya xama bargsimon qismlarga ajralgan tuzulishda bo`ladi. Qizil suv o`tlari hujayra po`sti ichki sellyuloza va tashqi qavati pektin moddasidan iborat. Bu modda suv o`ti tallomining shilimshiqlanishiga sabab bo`ladi. Ularning tarkibidagi shilimshiqsimon moddalardan shakar, pektin, oqsildan iborat agar-agar olinadi. Xromatoforda qizil rang beruvchi fikoeritrin pigmenti bo`ladi. Qizil suv o`tlari jinsi va jinssiz yo`l bilan ko`payadi. Qizil suv o`tlaridan ko`p uchraydigan vakillari delesseriya, anfeltsiya kiradi.

2. Darsning maqsadi:

Suv o`tlarining tuzulishi, yashash sharoiti, ko`payishi, rivojlanishi, ahamiyati va ahamiyatini o`rganish

3. O`quv jarayoning mazmuni:

1. Tuban o`simliklarning xarakterli belgilari, tuzulishi, avtotrof, geterotrof oziqlanishi, ko`payishi, rivojlanishi va klassifikatsiyasi
2. Suv o`tlarining tallomdan ya`ni hujayraviy tuzulishga ega ekanligi
3. Suv o`tlarining avtotrof oziqlanishi
4. Suv o`tlar turli pigmentlarning bo`lishi
5. Suv o`tlarida ko`payish xillari (vegetative, jinssiz, jinsli)
6. Pigmentlarning xillariga qarab, suv o`tlarining xilma- xilligi
 - a) Yashil suv o`tlari – Chlorophyta

- b) Ko`k – yashil suv o`tlari – Cyanophyta
- v) Diatom suv o`tlari – Diatomeae
- g) Qizil suv o`tlari – Rhodophyta
- d) Qo`ng`ir suv o`tlari – Rhaeophyta

4. O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Bumerang, Vertushka, FSMU.
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini, va umumiy baholash

5. Metod – Vertushka, FSMU

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhlarga material taqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi. 3 yoki 5 marta aylangandan keyin, o`qituvchi talabalar bilan umumiy to`g`iri javobni belgilaydilar.

Nº	Suv o`tlari va zamburug`lar	Oddiy (vegetativ)	Jinssiz	Jinsli
1	Ossilatoriya			
2	Vosheriya			
3	Laminariya			
4	Volvoks			
5	Xara			
6	Spirogira			
7	Xlamidomanada			
8	Xrookokk			
9	Pinnulariya			
10	Xlorella			
11	Kladofora			
12	Ulotriks			

F S M U – texnologiyasi

Mavzu: Suv o`tlari

F – fikringizni bayon eting

S - fikringizni bayoniga sabab ko`rsating

M – ko`rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil ko`rsating

U – fikringizni umumlashtiring

Suv o`tlari – tuban sporali o`simliklar va xilma-xilligi

Umumiyl vazifa

Kichik guruhlarga bo`lamiz va xar 1ta guruh fikr va dalillarni 4ta bosqich bilan yozishadi. Kichik guruhlar yozgan fikrlarni himoya qiladi. Trening - o`qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtiriladi.

Masalan 1 ta guruh javobi

F – Suv o`ti – tuban sporali o`simlik – tallomli, xilma – xil turlari ko`p

S – 1 xujayrali, ko`p xujayrali, xromotoforlari turlicha

M – Ossillatoriya, ko`p xujayrali, xromotoforlarida fikotsian (ko`k yashil) pigmenti bor

U – umumlashtirish

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1 – tajriba Tayyor preparatdan, gerbariyidan foydalanib, yashil suv o`tlari ko`riladi. Vosheriya, spirogira, suv o`tlari bilan tanishib chiqiladi. Tablitsadan foydalanib, ularning morfologiyasi va ko`payishi bilan tanishib chiqiladi.

2 – tajriba Sariq suv o`tlaridan va ularning xillari tablitsa orqali pinnulariya bilan tanishib chiqiladi. Xarakterli pigmenti ko`rsatiladi.

3 – tajriba Qong`ir suv o`tlari va qizil suv o`tlariga oid o`simliklar tayyor preparatdan, tablitsadan tanishib chiqiladi. Ularning o`ziga xos pigmentlari bilan tanishib chiqiladi. Fukus, laminariya gerbariyalari bilan tanishib chiqiladi.

Topshiriq. Talabalar tajribalarni bajarganlardan keyin, albomlariga suv o`tlari rasmlarni chizadilar

7. Kutiladigan natijalar

O`qituvchi

- a) Mavzu bo`yicha maqsadni tushuntirish
- b) Talabalarda qiziqish uyg`otish
- v) Yangi texnologik usullarni qo`llash


Talaba

- a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot olish
- b) Talabalar bilimini shakllantirish
- v) Talabalar qiziqish bilan qabul qilishi

8. Kelgusi rejalar

- a) O`qituvchi internetdan yangi material olish uchun foydalanishni mukammallashtirish
- b) Yangilash va joriy etish
- v) Kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish

- a) Talaba ushbu materiallarni o`zlashtirish, Mustaqil ishlashi
- b) Adabiyotlar bilan ishlash
- v) Yangi texnologiyaga yondashuvi



Qo'ng'ir suvo'tlar

A- barmoqsimon laminariya V- shirin laminariya, G- makrosista

Laboratoriya mashg`ulot -20

Mavzu: Zamburug`lar va lishayniklar

1. Darsning mazmuni:

Tuban o'simliklarning xlorofilsiz va tuzilishi juda xilma-xil bo'lgan turlarga zamburug'lar deb ataladi. Barcha zamburug'lar geterotrof, ya'ni tayyor organik modda bilan to'yinadigan parazit va saprofit organizmdir.

Zamburug' tanasi rangsiz gifasini deb ataladigan ingichka iplardan iborat. Zamburug' tanasini hosil etgan barcha gifalar majmuini mitseliy deyiladi. Mitseliy bir hujayrali- bo'g'imlarga bo'linmagan va ko'p hujayrali bo'g'imlarga bo'lingan bo'ladi. Zamburug' hujayrasi azotli po'st bilan o'ralgan. Hujayra ichida protoplazma, hujayra shirasi va bitta yoki bir nechta yadrodan iborat. Zamburug'lar kraxmal hosil qilmaydi, ammo uning o'rniga boshqa uglevod glikogen hosil qiladi.

Zamburug'lar vegetativ, jinssiz va jinsiy yo'llar bilan ko'payadi. Vegetativ ko'payish mitseliylarning bo'laklarga bo'linishi hisobiga, oyidiylar, xlamidasporalar hosil qilish va kurtaklanish yo'li bilan sodir bo'ladi. Jinssiz ko'payish zoosporalar, sporalar va konidiylar yordamida, jinsiy ko'payishi esa izogamiya, geterogamiya, oogamiya va zigogamiya yo'li bilan sodir bo'ladi.

Zamburug'lar quyidagi sinflarga bo'linadi:

- | | |
|---------------------------------|---|
| 1) Arximitsetlar – Archimycetes | 4) Xaltachali zamburug`lar |
| 2) Oomitsetlar – Oomycetes | 5) Bazidiyali zamburug`lar |
| 3) Zigomitsitlar – Zygomycetes | 6) Takomillashmagan zamburug`larga
bo'linadi |

Arximitsetlar –Archimycetes– tanasi yalong`och yoki uncha rivojlanmagan mitsellilardan iborat. Bir xivchinli zoosporalar yordamida jinsiz, jinsiy yo'l bilan ko'payadi. Bunday zamburug`lar karam ko`chatlarida uchraydigan Olpidium – Olpidium brassica dir. O'simlikning zararlangan joyida yalong`och hujayradan iborat bo'lgan parazit tanalar hosil bo'ladi. Keyinchalik bu tanalar po'st bilan o'ralib. Zoosporangiyalarga aylanadi. Zoosporangiyalar o'sib tashqariga chiqib turadigan uzun bo'yincha hosil qiladi va shu bo'yinchalardan ko`plab bir xivchinli zoosporalar tashqariga chiqadi. Qulay sharoitga tushgan zoosporalar, yangi karam ko`chatlariga tushib, ularni zararlanishi davom etadi.

Oomitsetlar – Oomycetes mitselliysi shohlangan alohida hujayralarga bo'lingan vakili- fitoftora sabzavotlarda parazit hayot kechiradi. Kartoshka pishib yetilishi oldidan, uning barglarida qo`ng'ir dog`lar paydo bo'ladi. Ularning bargning xamma qismiga tarqalib o'simlikni nobud qiladi.

Zigomitsitlar – Zygomycetes eng ko'p tarqalgan, saprofit holda yashovchi vakillardan oq pupanak – Mucor mycedo zamburug`idir. Uning mitselliysi asosan substrat ichida, qisman uning yuzasida joylashib, ularda sporangiy bandlari ko'tarilib turadi. Shar shaklidagi sporangiyarlari hosil qiladi. Ularning asosida to`sinq yuza keladi va u sporangiy ichiga botib, kichkina ko`rinishdagi ustuncha hosil qiladi. Sporangiy ichidagi ko'p yadroli sitoplazma alohida-alohida bir qancha spo-

ralarga aylanadi. Sporangiy po`sti yorilishi bilan sporalar tashqariga chiqadi va tarqaladi. Qulay sharoitda yangi mitselliya aylanadi.

Xaltachali zamburug`lar – bu zamburug`larda sporalar mahsus haltachalar ichida yetiladi. Mitselliysi bir yoki ko`p yadroli hujayralardan tashkil topgan.

Mitselliyning ikkita hujayrasi bir-biri bilan qo`shilib, hosil bo`lgan zigota haltachaga aylanadi. Shuning uchun ularni xaltachali zamburug`lar deyiladi. Xaltacha ichida ko`pincha sakkiztadan spora haltacha, yani askospora yetiladi. Xaltachasi bevosita mitselliya hosil bo`ladigan zamburug`larga achituvchi zamburug`lar misol bo`ladi. Uning tanasi alohida-alohida hujayralarga ajrala - digan kurtaklanib shohlangan zanjir hosli qiluvchu hujayralardan iborat. Kurtaklanish paytida, hujayrada o`simta yoki kurtakcha hosil bo`ladi. Bu o`simta asta - sekin kattalashib o`saveradi va ona hujayradan ajralib ketadi. Xuddi shunday yo`l bilan 2 - chi, 3 – chi kurtaklar paydo bo`laveradi, natijada yumaloq yoki ovalsimon hujayralardan tashlik topgan va osongina uzilib ketadigan zanjir hosil bo`ladi. Ayni paytda ularning yadrolari ham qo`shilib, yadro 3marta bo`lingach, hujayrada 8 – ta askospora vujudga keladi.

Bazidiyali zamburug`lar sinfi – mitselliysi ko`p xujayrali, yaxshi rivojlangan sporalari mahsus bazidiyalarida yetiladi. Ularda ona xujayra bazidiya vujudga keladi. Bazidiyaning sirtida bazidiya sporalari ekzogen usul bilan hosil bo`ladi. Mitselliyning ikki hujayrasi o`zaro qo`shilgandan keyin yadro ikki marta bo`linib bazidiya to`rtta o`simta hosil bo`ladi. Bu o`simtalarning uchi sharsimon qavarib, ularga bittadan yadro o`tadi va bazidiya spora deb ataladigan to`rtta spora vujudga keladi. Bu bazidiyali zamburug`larga parazit holda hayot kechiradigan qorakuya zamburug`i misol bo`ladi. Kasallangan o`simlik organlari zamburug`sporalari yig`indisidan qorayib kuygandek bo`lib qoladi.

Takomillashmagan zamburug`lar – mitselliysi yuksak darajali, ko`p hujayradan tashkil topgan, biroq xaltacha yoki bazidiya hosil qilmaydi. Ular konidiyalar yordamida hamda bevosita mitselliya bilan ko`payadi. Ular tuproqda va o`simliklar qoldiqlarda saprofit, yuksak o`simliklarda parazit yashab, vilt yoki vertitselyoz – so`lish kasaliklarni keltirib chiqaradi. O`simlikni poya va ildiz o`zaklarini chiritadi.

Lishayniklar –Lichenes

Lishayniklar simbioz organizm bo`lib, ikki organizmning zamburug` va suvo`tining birgalashib yashashidan iboratdir. Bunday birga yashash ikkala organizm uchun foydalidir. Suvo`tlar tarkibida xlorofill bo`lgani uchun organik moddalarni hosil qiladi va undan zamburug`lar foydalanadi, zamburug`lar esa o`z navbatida suvo`tiga suv va unda erigan mineral moddlarni etkazib beradi.

Lishaynik tanasi tarkibida odatda xaltachali zamburug`, ba`zi tropik lishaynik tarkibida bazidiyali zamburug`lar uchraydi. Suvo`tlarda esa ko`k-yashil yoki yashil suvo`tlar uchraydi.

Tashqi ko`rinish jihatidan lishayniklar po`stloqsimon, bargsimon va shoxli lishayniklarga bo`linadi.

2. Darsning vazifasi

Zamburug`larning tuzilishi, oziqlanishi, klassifikatsiyasi, ahamiyati.

Lishayniklar tuzilishi, hillari, yashash sharoitini ahamiyatini o'rganish

3. O`quv jarayoning mazmuni:

1. Zamburug`larning tuzulishi, tanasining mitselliyyidan tuzilganligi
2. Parazit, saprofit hayot kechirish
3. Zamburug`larning ko`payish usullari
4. Zamburug`larning klassifikatsiyasi
 - a) Arximitsetlar – Archimycetes
 - b) Oomitsetlar – Oomycetes
 - v) Zigomitsetlar – Zygomycetes
 - g) Xaltachali yoki askomitsetlar – Ascomycetes
 - d) Bazidiyali zamburug`lar – Basidiomycetes
 - e) Takomillashmagan zamburug`lar – Fungi imperfecti
5. Lishaynik tanasining tuzulishi
 - a) Suv o`tlari va zamburug`larning simbioz hayot kechirishi natijasida yuzaga kelgan organizm
 - b) Lishayniklar autotrof organizm
 - v) Lishaynik xilma- xilligi
 - g) Ko`payish usullari
 - d) Lishayniklarning ahamiyati.

4. O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- c) Darsning turi – suhbat
- d) Metod – Bumerang, Vertushka, FSMU.
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini, va umumiy baholash

5. Metod – Bumerang, Keys, Klaster

Bumerang treningi

Talabalar kichik guruhlarga bo`linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Xar 1ta guruh o`z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar orasida savol - javob ketadi.

1 guruhga beriladigan vazifa

1. Zamburug`larning tuzulishi
2. Yashash sharoiti
3. Oziqlanishi
4. Ko`payishi
5. Klassifikatsiyasi

2- guruhga beriladigan vazifa

1. Arximitsetlar sinfi vakillari
2. Sinf va xillari
3. Tuzulishi, yashash sharoiti
4. Ko`payishi, ahamiyati

3- guruhga beriladigan vazifa

1. Oomitsetlar sinfi vakillari
2. Tuzulishi, yashash sharoiti
3. Ko`payishi, ahamiyati

4- guruhga beriladigan vazifa

1. Zigomitsitlar sinfi vakillari
2. Tuzulishi, yashash sharoiti
3. Ko`payishi, ahamiyati

5- guruhga beriladigan vazifa

1. Xaltachali zamburug`lar
2. Uchrash joylari
3. Ko`payishi, ahamiyati

6- guruhga beriladigan vazifa

1. Bazidiyali zamburug`lar
2. Uchrash joylari
3. Ko`payishi, ahamiyati.

Keys stadi

Keys stadi ya’ni - muammoli ta’lim texnologiyasi o‘qitishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishga asoslanib, uni maqsadga muvofiq holda, darsning turli bosqichlarida, jumladan uy vazifani so‘rash, yangi mavzuni o‘rganish, o‘rganilgan mavzuni umumlashtirish va yakunlashda tavsiya etiladi.



Lishayniklarni dastlab olimlar bitta organizm deb qabul qilingan, 1867 yili rus biologi A.S.Faminn va O.V.Baronetskiylar lishayniklar tanasidagi yashil suv o‘ti ksanoriya bo‘lib, u mustaqil oddiy bo‘linish yo‘li bilan ko‘payishi, sporalar orqali tarqalishini aniqladilar. Demak ksanoriya mustaqil hayot kechiruvchi so‘v uti ekan, lishayniklar qanday organizm, ularni qaysi bo‘limga kiritishimiz mumkin.

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar va ishlash tartibi

Ob'ektlarni o'rghanish: zamburug'lar, lishayniklar

- 1 – tajriba** Nondagi mog`or zamburug`idan vaqtinchalik preparat tayyorlab mikroskopda ko`riladi.
- 2 – tajriba** Xaltachali zamburug`lar bilan tanishish uchun penitssillin, aspirillin achitqi zamburug`lari tablitsakardan tanishib chiqiladi.
- 3 – tajriba** Bazidiyali zamburug`lar bilan tanishib chiqish uchun – qora kuya, zang zamburug`lari gerbariy va tayyor preparatlari orqali o`rganiladi
- 4 – tajriba** Ko`piksmon yoki bargsimon lishayniklarni mikraskopda ko`rish
- 5 – tajriba** Shohlangan, ko`piksmon, bargsimon lishayniklar tablitsadan, jonli ko`rgazmali quollardan va gerbariylardan o`rganiladi.

Topshiriq. Talabalar tajribalarni bajarganlaridan keyin, albomlariga zamburug`lar, lishayniklar rasmlarni chizadilar


7. Kutiladigan natijalar


- | O`qituvchi | Talaba |
|---|---|
| c) Mavzu bo`yicha maqsadni tushuntirish | a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot olish |
| d) Talabalarda qiziqish uyg`otish | b) Talabalar bilimini shakllantirish |
| v) Yangi texnologik usullarni qo`llash | v) Talabalar qiziqish bilan qabul qilishi |

8. Kelgusi rejalar

- | | |
|---|--|
| a) O`qituvchi internetdan yangi material olish uchun foydalanishni mukammallashtirish | a) Talaba ushbu materiallarni o`zlashtirish, Mustaqil ishlashi |
| b) Yangilash va joriy etish | b) Adabiyotlar bilan ishslash |
| v) Kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish | v) Yangi texnologiyaga yondashuvi |


Tuban sporali o'simliklarga oid klaster






Toshkuya (shoxkuya)

A-toshkuya bilan zararlangan boshoq B- toshkuyadan osib chiqqan tanacha va boshcha V- boshchaning usunasiga kesimi G- ichki meva (peritesi) D- chaltachdan chiqayotgan ipli spora (askospora)



Lishayniklar

A-yopishqoq lishaynik B- bargsimon lishaynik V, G, D- butasimon lishaynik E- lishaynikning ichki tusilishi, J- sorediya



Oq po'panak zamburig'i

A- zamburgning umumiyl korinishi, B,V, G- sporangiyaning osishi, D, E- jinsiy kopayishi va zigotaning osishi, Z- yetilgan zigota va uning osishi.

Laboratoria mashg`ulot- 21

Mavzu: Yuqori sporali o`simliklar: Mohsimonlilar, plaunsimonlar, qirqbo`gimlilar, qirqquloqsimonlilar

1. Darsning mazmuni:

Yuqori sporali `osimliklar tanasining tuban o`simliklarga nisbatan murakkab tuzulishi bilan farqlanadi. Yuksak o`simliklarning ko`pchligida ildiz, poya, barg bo`lib, ular qoplovchi, o`tkazuvchi, assimilyatsion, g`amlovchi mexanik va boshqa to`qimalarga ajralgan. O`simliklarning quruqlikka chiqishida tana tuzulishlari murakkablashgan va bu bilan birga ko`payish organlarining o`zgarishiga ham sababchi bo`ladi. Yuksak o`simliklar uchun ko`p hujayrali jinssiz (sporangiylar) va jinsli organ (gametangiy) bo`lishi xarakterlidir. Erkak jinsiy organ – anteridiy, urg`ochi jinsiy organ – arxegoniya deb ataladi. Yuksak o`simliklarning taraqqiyot davrida gametofit (jinsiy) nasl va sporafit (jinssiz) nasllar gallanadi.

Yuksak o`simliklardan: Mohsimonlilar, plaunlar, qirqbo`gimlilar, qirqquloqsimonlar o`rganiladi.

Mohsimonlilar – Bryophyta – tanasida poya va barg takomillashgan bo`lib, ko`p hujayrali rizoidga ega. Tuban vakillari tanalari tallomdan iborat. Moxsimonlarning ko`payishida gametofit nasl ustun turadi.

Mohsimonlilar:

Jigarsimon moxlari

Poya bargli moxlarga bo`linadi.

Plaunlar - Lycopodiophyta – haqiqiy barg poyali o`simliklar bo`lib ularda ham nasllarning navbatlashib ko`payishi kuzatiladi.

Sporafit nasl ustunlik qiladi. Sporafit poyasining uchki qismida joylashgan boshoqchalarda sporangiylar sporofillar rivojlanadi.

Qirqbo`gimsimonlar - Sphenophyta – poyasining ichi kovak bo`lishi, barglari mayda bo`lib poyaga doira bo`ylab joylashgan. Qirqbo`gimsimonlar spora yetishtirish yo`li bilan ko`payadi. Sporalar sporangiyalarda yetishib, sporangiylar shali o`zgargan barg hisoblanadi. Sporafillar qalqon shaklida bo`lib, poya uchidagi halqalarda joylashadi. Sporafillar ichida sporangiy mavjud. Sporangiy ichida ko`p miqdorda elaterali sporalar pishib yetilgandan so`ng tashqariga chiqib sochiladi. Sporalar tashqi ko`rinishidan bir – biridan farq qilmasa ham, lekin ular fiziologik xususiyati bilan farq qiladi va xar xil bo`ladi. Ba`zi bir sporalar o`sib urg`ochi gametofit, ikkinchi hillar esa erkak gametofit hosil qiladi. Urg`ochi o`simta yirik bo`lib, unda arxegoniya yetiladi. Arxegoniya tuxum hujayra rivojlanadi. Erkak o`simta mayda bo`lib, unda anteridiy hosil bo`ladi. Unda esa spermagen hujayralar rivojlanadi. Otalanish suv yordamida shudring tushganda bo`ladi. Otalangan tuxum hujayradan zigota, undan esa yangi qirqbo`g`im, ya`ni sporofit nasl rivojlanadi.

Qirqquloqsimonlilar - Polypodiophyta. Qirqquloqlar ham sporadan ko`payadi. Sporalar sporangiyalarda hosil bo`lib, ular esa odatda barglarda to`p - to`p bo`lib joylashib, soruslarda yetiladi - sporalar pishib yetilgandan so`ng kuch

bilan sporangiyidan otilib chiqib tashqariga tarqaladi. Qulay sharoitga tushgach sporalardan yangi o`simta yoki gametofit o`sib chiqadi. Gametofit o`simta yurakka o`xshash, kichik, diametri 0.5- 1sm ga to`g`ri keladigan plastinkadan iborat. O`simtaning ostki qismida ko`p rizoidlar bo`ladi. U bilan tuproqqa o`rnashadi. O`simta jinsiy o`rganlar anteridiy va arxegoniy hosil bo`lib, rivojlanadi. Anteridiydagি spermatazoidlar yomg`ir yoki shudring tushganda suvga chiqadi. Spermatazoidlar arxegoniydagи tuxum hujayraga o`tib otalantiradi. Otalangan tuxum hujayralardan yangi sporofit nasl paydo bo`ladi.

2. Darsning maqsadi:

Yuqori sporali o`simliklar hilma-hilligi, yashash sharoitlari, ularning ko`payishida nasl gallanish va biologik hususiyatlari o`rganiladi.

3. O`quv jarayoning mazmuni:

1. Yuqori sporali o`simliklarning tuzulishi, ko`payishidagi nasl gallanishi, klassifikatsiyasi
2. Moxsimonlarning tuban sporali o`simliklardan farqi
3. Moxsimonlarning asosiy belgilari
4. Qattanali va poya bargli moxlarga bo`linishi.
5. ularning ko`payishida nasl gallanishi
6. Jigarsimon moxlar tuzulishi, va ko`payishi
7. Poya bargli moxlar tuzulishi va ularning ko`payishi
8. Plaunsimonlarning umumiylar xarakteristika va xilma-xilligi
9. Bir xil sporali plaunlarni tuzulishi va yashash sharoiti
10. Xar xil sporali plaunlarni tuzulishi va yashash sharoiti
11. Plaunlarning ko`payishi va rivojlanishi
12. Plaunlarning tibbiyotda va xo`jalikdagi ahamiyati.
13. Qirqbo`gimlilarining qadimgi va hozirgi tur vakillari
14. Dala qirqbo`g`imining tuzulishi va yashash sharoiti
15. Dala qirqbo`g`imining ko`payishi va rivojlanishi
16. Dala qirqbo`g`imining ahamiyati.
17. Qirqquloqlarining umumiylar tuzulishi
18. Bir xil sporali qirqquloqlarning tuzulishi va yashash sharoiti
19. Xar xil sporali qirqquloqlarning tuzulishi va yashash sharoiti
20. Qirqquloqlarning ko`payishi va rivojlanishi
21. Qirqquloqlarning ahamiyati.

4. O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- e) Darsning turi – suhbat
- f) Metod – blits o`yin, bumerang, vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy

- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini, va umumiy baholash

5. Metod – Blits o`yin, Bumerang, Vertushka

Blits - o`yin “ Men KTD tashkilotchisi”

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To`g`ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruh ishidan chetlanish	Kakku zig`iri o`simgili morfologiyasi, ko`payishi va rivojlanishi
						<ol style="list-style-type: none"> 1. Zigitadan jinssiz nasl sporofit o`sib chiqadi 2. Rizoid, ildiz va poya bo`ladi 3. Sporafit sporalardan o`simga protonema o`sib chiqadi 4. Gametofit organlari otalik – onalik o`simgiklarda alohida - alohida joylashadi 5. Urug`langan tuxum hujayradan zigota o`sib chiqadi 6. Kakku zig`iri poyasining balandligi 20-40 sm bo`ladi 7. Otalanish hodisasi erta bahorda suvli muhitda sodir bo`ladi 8. Protonema o`simga ingichka shohlangan xlorofilga boy bo`ladi 9. Anteridiyan chiqqan spermatozoid arxegoniya kiradi va uni otalantiradi 10. Protonema o`simgasidan keyinroq kakku zig`iri o`sadi

Bu treningda – talabalarni guruhlarga bo`lib, material tarqatiladi. Guruh talabalari ketmaket yozilgan, chalkashtirilgan jumlalarni to`g`iri holatda joylash tirilishlari kerak. Avvalo to`g`iri deb hisoblangan jumla raqamini, tablitsadagi “Yakka baho” grafasiga yozib chiqadi. So`ngra o`qituvchi tomonidan to`g`iri javob aytilgandan so`ng, noto`g`ri raqamlarni “yakka xato” grafasiga yoziladi. Hisoblangandan keyin “guruh bahosi” grafasi o`qituvchi tomonidan belgilanadi.

Bumerang metodi

Bu metodda – talabalar kichik guruhlarga bo`linadi. O`qituvchi har bir guruhgaga vazifa yozilgan material tarqatadi. Har bir guruh talabalari berilgan vazifa bo`yicha o`z fikrlarini bayon qiladi va undan so`ng guruhlar orasida savol—javob ketadi.

1- guruh vazifasi

Plaunlarning qadimgi vakillari
Plaunlarda qaysi nasl ustunligi
Jinssiz nasl tuzulishi
Jinsiy nasl tuzulishi

2- guruh vazifasi

Teng sporali plaunlar tuzulishi
Nasl ustunligi
Ko`payishi va rivojlanishi
Ahamiyati

3- guruh vazifasi

Har xil plaunsimonlar tuzulishi
Yashash sharoiti
Ko`payishi va rivojlanishi

Blits - o`yin “ Men KTD boshlig`iman”

Guruuh bahosi	Guruuh xatosi	To`g`iri javob	Yakka baho	Yakka xato	Guruuh ishidan chetlanish	Dala qirqbo`g`imining ko`payishi va rivojlanish sikli
						<p>1. Sporali boshoqcha urchuqsimon shaklda bo`lib, ularda qalqonsimon sporafillar joylashadi</p> <p>2. Otalanish suv yordamida yomg`ir yoqqanda yoki shudring tushganda bo`ladi</p> <p>3. Qirqbo`g`im o`simgida gallanib ko`payish kuzatiladi</p> <p>4. Olti burchakli plastinka shakldagi sporofillar ichki qismida 8-10 sporangiy mavjud</p> <p>5. Erta bahorda ildizpoyadan qo`ng`ir rangli poya o`sib chiqib, sporali boshoq hosil qiladi</p> <p>6. Otalangan tuxum hujayralardan zigota, undan esa yangi qirqbo`g`im o`simgi rivojlanadi</p> <p>7. Sporangiy ichida elaterali sporalar pishib yetilgandan so`ng tashqariga chiqib sochiladi.</p> <p>8. Bazi bir sporalar urg`ochi gametofit (arkegoniyl), ikkinchi xillarda erkak gametofit (anteridiy) hosil bo`ladi</p> <p>9. Sporalar tashqi tomondan farq qilmasdan, fiziologik hususiyati har hil</p>

Bumerang metodi

Bu metodda – talabalar kichik guruhlarga bo`linadi. O`qituvchi har bir guruhga vazifa yozilgan material tarqatadi. Har bir guruh talabalari berilgan vazifa bo`yicha o`z fikrlarini bayon qiladi va undan so`ng guruhlar orasida savol—javob ketadi.

1- guruh vazifasi

Qirqquloqlarning umumiyligi
Yashash sharoiti
Xilma – xilligi
Klassifikatsiyasi

2- guruh vazifasi

Bir xil sporali qirqquloqlar
Erkak qirqquloq yashash sharoiti va morfologik belgilari
Sporafit nasl tuzulishi

3- guruh vazifasi

Gametofit naslning hosil bo`lishi
Otalanish
Yangi sporafit nasl paydo bo`lishi

4- guruh vazifasi

Xar xil sporali qirqquloqlar
Salviniya o`simgilining tuzulishi
Ko`payishi va rivojlanishi

Blits – o'yin

Gu-ruh baho-si	Gu-ruh xato-si	To'g'-ri ja-vob	Yak-ka xa-to	Yak-ka ba-ho	Guruh ishidan chetlanish	Qirqulloqsimonlar ko'payish va rivojlanish sikli
						<p>1. Qulay sharoitga tushgan sporalardan yangi o'simta gameto-fit o'sib chiqadi</p> <p>2. Paporotnikning bu fazasi sporafit nasl deyiladi</p> <p>3. O'simtada arxegoniya va anteridiy rivojlanadi</p> <p>4. Otalanish yomg'ir yoqqanda, shudring tushganda sodir bo'ladi</p> <p>5. Sporalar pishib etilgandan ke-yin kuch bilan sporangiyidan otilib chiqadi</p> <p>6. Ildizpoyaning uchida murakkab qo'shpatsimon barglar o'sib chiqadi</p> <p>7. Otalangan tuxum hujayra o'sa boshlaydi, undan murtak qismlari ildiz, poya, barg etishadi</p> <p>8. O'simta ostida rizoidlari bo'-lib, shular yordamida tuproqqa maxkam o'rashadi va oziqlanadi</p> <p>9. Erkak paporotnik ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, yirik ildizpoya hosil qiladi.</p> <p>10. Arxegoniya o'simtaning yuqori tomonida, anteridiy esa pastida rivojlanadi</p> <p>11. Yoz faslida barglarning ostida spora etishtiruvchi organlari soruslar hosil bo'ladi</p>

Bumerang metodi

Talabalarning kichik guruhlarga bo'linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Xar bitta guruh o'z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar orasida savol – javob ketadi.

1 - guruh vazifasi

1. Qirqquloqsimonlarning umumiy belgilari
2. Yashash sharoiti
3. Xilma – xilligi
4. Klassifikasiyasi

2 – guruh vazifasi

1. Bir xil sporali qirqquloqlar
2. Erkak qirqquloq yashash sharoiti va morfologik belgilari
3. Sporafit nasl tuzilishi

3 - guruh vazifasi

1. Gametofit naslning hosil bo'lishi
2. Otalanish
3. Yangi sporafit nasl paydo bo'lishi

4 - guruh vazifasi

1. Xar hil sporali qirqquloq
2. Salviniya o'simligining tuzilishi
3. Ko'payishi va rivojlanishi

Vertushka metodi

Yuqori sporali o'simliklarning ko`payishi va rivojlanish sikli

	Mohsimonlar,plaunlar qirqbog`imlar, qirqquloqlar	vegatativ	sporafit	gametofit
1	Erkak paportnik			
2	Cho`qmoqli plaun			
3	Sfagnum			
4	Dala qirqbo`g`imi			
5	Salviniya			
6	Marshantsiya			
7	Selaginella			
8	Kakku zig`iri			
9	Funariya moxi			

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ob`ektlarni o`rganish: Moxsimonlar, plaunlar, qirqbo`g`imlilar, qirqquloqsimonlar

1 – tajriba Moxsimonlar. gerbariy va tablitsadan foydalangan holda moxsimonlarni morfologiyasini o`rganib quyidagi belgilarga e`tibor berish:

- a) o`simlik organlari (rizoid, poya, barglari)
- b) barglarning shohlanishi va shakli
- v) jinsiy organlarning joyylanishi

2 – tajriba Plaunlar. Gerbariy va tablitsadan foydalangan holda apteka plauni morfologiyasini o`rganish


- a) o`simlik organlari (ildiz, ildizpoya, bargi)
- b) poyasining shohlanishi va shakli
- v) barglarning shohlanishi va shakli
- g) sporali boshog`i
- d) sporalarni mikroskop ostida ko`rish

3 – tajriba Qirqbo`g`imlilar. Gerbariy va tablitsadan foydalangan holda qirqbo`g`imning tashqi tuzulishini o`rganish

- a) barg plastikasining orqa tomonidagi soruslar
- b) Soruslarni mikroskop ostida ko`rish
- v) Ildizpoya shakli
- g) o`simlikning umumiy ko`rinishi: ildizpoya, arxegoniya, anteridiya

Topshiriq: Qirqquloqsimonlar. Gerbariy va tablitsadan foydalanib yuqori o`simliklarga oid rasmlarni chizib, rasmlarning qismlarini yozib qo`yadilar Qirqquloqsimonlar jinsli va jinssiz ko`payish (nasl gallanish) ga oid rasmlarni chizing.

Yuksak sporali o'simliklarga oid klaster




7. Kutiladigan natijalar

- | | |
|---|---|
| O`qituvchi | Talaba |
| e) Mavzu bo`yicha maqsadni tushuntirish | a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot olish |
| f) Talabalarda qiziqish uyg`otish | b) Talabalar bilimini shakllantirish |
| v) Yangi texnologik usullarni qo`llash | v) Talabalar qiziqish bilan qabul qilishi |


8. Kelgusi rejalar

- | | |
|--|---|
| a) O`qituvchi internetdan yangi material olish uchun foydalanishni ishlashi mukammallashtirish | a) Talaba ushbu materiallarni o`zlashtirish, Mustaqil |
| b) Yangilash va joriy etish | b) Adabiyotlar bilan ishslash |
| v) Kasbiy tayyorgarlikni yondashuvi insonparvarlashtirish | v) Yangi texnologiyaga |




Marshansiya (jigarsimon mox)

A- urugchi tanasi, B- changchi tanasi V- tanachaning kondalang kesimi. 1- ogizchaning kondalang kesimi, 2- epiderma, 3- xlorofilli hujayra, G- ogizchaning ustki ko'rinishi



Plaun


1-boshqcha, 2- buyraksimon sporogon, 3- spora, 4- bir uqli ikki jinsli maysa



Qirqbogim

Dala qirqbogiminng hayot sikli

2n- diploid xromosomali jinssiz nasl, n-gaploid xromosomali jinsli nasl



Qirqquloqda jinssiz va jinsli naslning gallanishi

1- jinsli maysa 2- uruglangan maysadan jinssiz naslning osib chiqishi 3- jinssiz nasl

Laboratoria mashg`ulot -22

Mavzu: Urug`li o`simliklar. Ochiq urug`lilar.

1. Darsning mazmuni:

Ochiq urug`li o`simliklar toshko`mir davrining oxirlarida qirqquloqsimonlardan keyin paydo bo`lgan. Ochiq urug`lilarda birinchi bo`lib, urug` hosil bo`lgan. Ularning urug`lari yopiq urug`lilar singari mevasining ichida emas, balki megasporafillarda ochiq xolda joylashgan. Shuning uchun ularni ochiq urug`lilar deyiladi. Hozirgi ochiq urug`lilarning vakillari, ninabarglilarda poyaning po`slog`i yupqa bo`lib, yog`ochli qismi rivojlangan. Mego va mikrosporofillari maxsus qubbalarga birlashgan va bir jinsli bo`ladi. Ochiq urug`lilar 3 – sinfga bo`linadi: sagovniklar, qubbalilar, qobiqli urug`lilarga.

Ninabarglilar doimiy yashil o`simliklar. Ular 5 ta oilaga: qarag`aydoshlar – (Pinaceae), Sarvidoshlar – (Cupressafeae), Taksodiyadoshla – (Taxodiaceae) araukariyadoshlar – (Araucariaceae), zarnabdoshlar – (Taxaceae) ga bo`linadi. Qarag`aydoshlar oilasiga qarag`aylar avlodni kirib – bir uyli doimiy yashil daraxtlar bo`lib, 100 dan ortiq turi mavjud. Shulardan o`rmon qarag`ayi–*Pinus silvestris* 1 uyli ayrim jinsli, poyasining diametri 1m, bo`yi 50 m, poyasi monopodial shoxlanadi. Ular ko`payishi uchun xar xil tuzilgan erkak va urg`ochi q`ubbalar hosil qiladi. Erkak qubbalar cho`ziq sariq rangda bahorda o`sib chiqqan yosh novdalar uchida joylashadi. Mikrosporifillarda mikrosporangiyalar bo`lib, uning ichida mikrospora yoki chang yetiladi. Chang 2 qavat: tashqi “ekzina”, ichki “intina” po`s bilan o`ralgan. Tashqi po`sning 2 tomonidan ichiga havo to`lgan bo`rtma havo pufakchasi bor. Chang mikrosporangiyada o`sib, yadrosi bo`linib, 2ta hujayra anteredial va vegetativ hujayra hosil bo`ladi. Anteredial hujayradan spermiy vegetativ hujayradan chang yo`li hosil bo`ladi. Urg`ochi qubbalar yosh novdaning ichida hosil bo`ladi. Qisqa o`qdan iborat urg`ochi qubba 2 xil, tashqi va ichki tangacha barglar bilan qoplangan. Bu tangachalar qo`ltig`ida mikrosporafillar joylashib qarag`ay gullagan da qubba tangachalari bir-biriga zich taqalib turmay, tirkish hosil bo`lib shamol uchirib keltirgan chang ana shu tirkish orqali qubba ichiga kiradi. urug` tangachasining o`qqa birikib turgan joyida 2 ta urug` kurtak hosil bo`ladi. Urug` kurtak ko`p hujayrali nutsellus va uni o`rab olgan 2 qavat intigumentdan iborat. Intigumentning yuqori tomonida kanalcha bo`lib, mikropile deb ataladi. Nutsel-lusning mikropilega yaqin turgan joyidagi hujayralarning biri meyoz bo`linib, 4 ta hujayra paydo bo`ladi. Ulardan bittasi kengayib, endospermani hosil qiladi. Qolgan 3 ta si nobud bo`ladi . Endospermaning yuqori qismida, mikropile tomonida 2 ta arxegoniylar hosil bo`lib, ularning ichida bittadan tuxum hujayra yetiladi.

Urug` kurtakka tushgan chang rivojlanib, mikropile orqali endospermdagi arxegoniya borgach yoriladi. Ichidan chiqqan spermiylardan biri arxegoniya-dagi tuxum hujayra bilan qo`shiladi va urug`lanish sodir bo`ladi.

Qobiqli urug`lilar - Chlamydaspermataphyta ga kiradigan o`simliklarga Efedoradoshlar oilasi bilan tanishamiz. Zog`oza o`simligi Osiyo, Xindiston, Xitoy, Janubiy Amerikada keng tarqalgan. Uncha katta bo`lmagan yashil buta yoki o`simlikning bo`yi 90 smga yetadi.

Zog`ozaning bir xil poyasida juftlashib joylashgan mayda barglarining qo`ltig`ida shar shakldagi kichik chanchi g`uddalar bor. Ularda mikrosporangiy mavjud. Ikkinci hil poyasida kichik g`uddacha bo`lib unda bitta bola qopchig`i rivojlanadi. Bu bola qopchig`ining atrofini go`shtdor qobiq o`rab olgan.

Bola qopchig`ining tashqi qavati integument cho`zilib, naychani hosil qiladigan mikrosporalarni ushlab olishga moslashgan. Intigumentning ichki tomonidagi nutsellusda urug`chi maysa rivojlanadi. Urug`chi maysa gaploid xromosomali endosperm va uni ichida joylashgan arxegoniyadan iborat. Intigument naychasining ichida mikrosporadan spermiya hosil bo`ladi va 1ta arxegoniya bilan urug`lanib urug` hosil qiladi. Urug`ning atrofini go`shtdor qobiq o`ralgan bargchalar qizarib suvli bo`ladi va tashqi ko`rinishidan rezavor mevaga o`hshab ketadi. Zog`ozadan efidrin alkaloidi olinib, tibbiyotda markaziy nerv sistemasi kasalliklarida foydalaniadi.

2. Darsning maqsadi:

Ninabarglarning xarakterli belgilari, yashash sharoiti, ko`payishi va rivojlanishi, ahamiyati va xilma-xilligi. Efedra o`simligining tuzulishi ahamiyati.

3. O`quv jarayoning mazmuni:

- 1) Ochiq urug`li o`simliklarni yuqori sporali o`siliklardan farqi
- 2) Ochiq urug`li o`simliklar klassifikatsiyasi
- 3) Ninabarglilar sinfiga kiradigan o`simliklar tuzulishi
 - a) Otalik va onalik qubbalarning shakli va tuzulishi
 - b) Changning tuzulishi
 - v) urug`kutakning tuzulishi
 - g) Changlanish va otalanish
 - d) Urug`ning taraqqiy etishi
- 4) Ochiq urug`li o`simliklar deb atalishi
- 5) Ninabargli o`simliklarning ahamiyati
- 6) Qobiqli urug`lilar tuzulishi va xillari
- 7) Zog`oza (efedra) o`simligining tuzulishi va yashash sharoiti

4. O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – blits o`yin, bumerang, vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy
- d) Usul – nutqli

- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini, va umumiy baholash

5. Metod - F.S.M.U. treningi

F S M U – texnologiyasi

Mavzu : Ninabarglilar yoki Qarag`aydoshlar oilasi

O`qituvchi tomonidan umumiy vazifa beriladi.

Masalan: “qarag`ay o`simgining morfologik belgilari, changlanish va otalanishi”.

Kichik guruhlarga bo`lamiz va xar 1 ta guruh fikr va dalillarni 4 ta bosqich bilan yozishadi. Kichik guruhlar yozgan fikrlarni himoya qiladi. va o`qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtiriladi.

F-qarqg`ay – ochiq urug`li o`simplik

S- urug`lari megosporofillarda ochiq holda joylashadi

M-qubbalarda joylashgan chang va urug`kurtak orqali changlanish va otalanish hodisasi sodir bo`ladi.

U-qarag`ay o`simgida ketadigan jarayonlar umumlashtiriladi

6.Mustaqil bajarish uchun vazifalar va ishslash tartibi.

Ob`ektlarni o`rganish:Ninabarglilar. Qobiq urug`lilar.

1 – tajriba: Oddiy qarag`ay Gerbariy va tablitsadan foydalanib, oddiy qarag`ayni umumiy ko`rinishini (bargning shakli, joylanishi, otalik, onalik quddalari) o`rganish

- a) otalik g`uddasi : umumiy ko`rinishi, tangachalar changdon, changdon tuzulishi – ekzina, intina, vegetativ, generativ hujayra
- b) onalik g`uddasi: umumiy ko`rinishi qoplagich tangacha, urug` beruvchi tangacha, urug`kurtak

urug`kurtak tuzulishi:integument,nutsellus, mikropile,embrion,arxegoniya

2 – tajriba: Zog` oza gerbariy va tablitsadan foydalanib, zog` oza o`simgining morfologik belgilarni o`rganish


Topshiriq. Dars davomida talabalar Gerbariy va tablitsalardan foydalangan holda albomlarga o`rganilgan o`simpliklarning barcha belgilari ko`rsatilgan holda rasmlarini chizib olish.

7. Kutiladigan natijalar

- | | |
|--|---|
| <p>O`qituvchi</p> <ul style="list-style-type: none">a) Mavzu bo`yicha maqsadni tushuntirishb) Talabalarda qiziqish uyg`otishv) Yangi texnologik usullarni qo`llash | <p>Talaba</p> <ul style="list-style-type: none">a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot olishb) Talabalar bilimini shakllantirishv) Talabalar qiziqish bilan qabul qilishi |
|--|---|


8. Kelgusi rejalar

- | | |
|--|--|
| <ul style="list-style-type: none">a) O`qituvchi internetdan yangi material olish uchun foydalanishni ishlashi mukammallashtirishb) Yangilash va joriy etishv) Kasbiy tayyorgarlikni yondashuvi insonparvarlashtirish | <ul style="list-style-type: none">a) Talaba ushbu materiallarni o`zlashtirish, Mustaqilb) Adabiyotlar bilan ishslashv) Yangi texnologiyaga |
|--|--|



Zog'oza

- A- makro va mikroguddali poya, B- mikroguddalar, V- makrogudda G- makroguddanining uzunasiga kesimi
 1- urugchi shoxchasi, 2- changchi shoxchasi, 3- mikrogudda, 4- orama bargcha, 5- integument, 6- urug kurtagi, 7- ichki integument (chang yoli hisil qiluvchi)



Oddiy qaragayning rivojlanish sikli

- A- qaragayning umumiyo ko'rinishi, B- changchi qubbasingin kesimi, V- changchi, G- urugchi qubbasingin kesimi, D- urugkurtaginiq kesimi, E- urug tangachasi ikkita urugi bilan, J- urugning uzunasiga kesimi.

Laboratoria mashg`ulot – 23

Mavzu: Yopiq urug`li o`simpliklarda gulning tuzilishi

1. Darsning mazmuni:

Yopiq urug`lilar jinsiy ko`payishi jihatidan boshqa o`simpliklarga qaraganda yuqori bosqichda turadi. Ularda jinsiy ko`payish uchun maxsus reproduktiv (hosil) organlari – gul hosil bo`ladi.

Gul juda murakkab va unda muhim rivojlanish sodir bo`ladi: mikro - sporogenez, changlanish, urug`lanish va meva hosil bo`lishi jarayonlarini kuza-tish mumkin.

Gul novdaning o`sish nuqtasidan paydo bo`ladi. Gulqo`rg`on bargchasi, changchi urug`chi ichki meristemadan hosil bo`ladi. Gul qismlari dastlab gul kurtagi ichida shakllanadi.

Gullar shaklan juda xilma-xil bo`lishiga qaramay quyidagi qismlardan iborat.

Gul o`rni – gulli novdaning uchki kengaygan qismi bo`lib, gulning hamma qismlari shu o`rinda joylashgan poyaning bevosita gul o`rin ostida turgan va butun gulni tutib turuvchi qismiga *gul band* deb ataldi. Gul o`ringa kosacha birikadi. Kosacha gulqo`rg`onning tashqi doirasini hosil qiluvchi va *kosacha barg* deb ataluvchi bir nechta yashil bargchalardan iborat.

Kosachaning ichki tomonida gulning keyingi doirasi joylashadi. U kosachabarglardan bir muncha yirik va har xil rangli tojibarglardan tuzilgan. Tojbarglar to`plami *gul-toj barglar* deb ataladi.

Kosacha barglar va gultoji barglar gulqo`rg`onni tashkil etadi. Gul qurg`on oddiy yoki murakkab bo`lishi mumkin. Agar gul faqat kosachabarglardan yoki tojbarglardan tashkil topgan bo`lsa *oddiy gulqurg`on* deyiladi. Gul qismlarning gul o`rnida joylanishiga ko`ra siklik (doiraviy, atsiklik (spiralsimon), gemitsiklik (ham doiraviy, ham spiralisimon) bo`ladi.

Murakkab gul qurg`onli gullar morfologikjihatidan tug`ri va qiyshiq bo`lishi mumkin. Tug`ri aktinomorf gullar yuzasidan tug`ri chiziq simmetriya bir necha marta o`tkaziladi, qiyshiq zigomorf gullarda faqat bitta tug`ri chiziq o`tkazilib, teng ikkiga bo`linadi. Aktinomorf gullarga olma, o`rik, shaftoli, karam; zigomorf gullarga mavrak, yalpiz, no`xat, mosh misol bo`ladi. Ba`zi gullar yuzasidan tug`ri chiziq o`tkazib bo`lmaydi, bunday gullarga assimetrik gullar deyiladi. Masalan kala, valeriana gullari.

Changlanish changdonda yetilgan chang donachasini urug`chi tumshuq-shuqchasiga kelib tushishidan iborat bo`lib, ikki xil turi bo`ladi: o`z – o`zidan changlanish va chetdan changlanish.

Urug`lanish – erkak va urg`ochi jinsiy gametalarning o`zaro qo`shilish jarayoni hisoblanadi. Erkak gameta spermiya, urg`oqchi gameta tuxum hujayra deyilib, bu jarayon urug`chida kechadi. Ya`ni chang naychasi murtak xaltachaga o`tganda, uning uchi yorilib, ichida ikki spermiya murtak xaltachaga to`kiladi. Bu spermiyalardan bittasi tuxum hujayra bilan, ikkinchi spermiya markaziy yadro bilan qo`shiladi. Bu jarayon qo`sh urug`lanish deyiladi.

2. Darsning maqsadi:

Evolutsion taraqqiyot natijasida gulning hosil bo`lishi, gulning tuzilish (qismlari), formulasi diagrammasi, gul qismlarining gul o`rnida joylanishiga qarab xillari, changchi, urug`chining tuzulishi, gulda ketadigan changlanish, urug`lanish jarayonlarini o`rganish.

3. O`quv jarayoning mazmuni:

- 1.Yopiq urug`li o`simliklar bo`limiga tasnif
- 2.Yopiq urug`li o`simliklar qanday sinflarga bo`linadi
3. Gul deb nimaga aytildi va u qanday funtsiyalarni bajaradi
4. Gulning kelib chiqishi, to`liq va to`liq bo`lmagan gullar
5. Gul qismlari ularning lotincha nomlari
6. Oddiy va murakkab gulqo`rg`on
7. To`g`ri gul bilan qiyshiq gulni farqi
8. Qanday gullar yalang`och gullar
9. Changchi qanday vazifani bajaradi va u qanday organlardan tuzilgan
10. Chang donachalarining shakli, tuzulishi qanday?
11. Urug`chi qanday vazifani bajaradi va u qanday tuzilgan?
12. Gul tugunining gulqo`rg`oniga nisbatan joylanishi va tuzulishi
13. Urug`kurtakning va murtak xaltachaning tuzulishi
14. Gul formulasi
15. Gul diagrammasi
16. Changlanish va uning xillari
17. Qo`shaloq otalanish
18. Yopiq urug`li o`simliklarni otalanishi, ochiq urug`li o`simliklarni otalanishidan farqi.

4.O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- g)Darsning turi – suhbat
- h) Metod – Bumerang, Vertushka
- v) Forma (shakl) – guruhi
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini, va umumiy baholash

5.Metod – Blits o`yin, Bumerang, Vertushka

Blits – o`yin “Urug`lanish jarayoni”

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To`g`iri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruh ishidan chetlatish	Harakatlar mazmuni
						<p>1. Murtak xaltachaning yadrosi ketma- ket 3 marta mitoz bo`linib, 8 ta yadroni hosil qiladi</p> <p>2. Chang naychasi onalik tugunchasiga yetib bor-gach, mikropile orqali urug`chi haltachasi ichiga kiradi va uchki qismi yorilib, hamma moddasi xaltacha ichiga to`kiladi</p> <p>3. Murtak haltachaning holaza qismida qolgan 3ta yadro antipodlar deyiladi, mikropile tomo nidagi 3ta yadroni bittasi tuhum hujayra, qolgan 2tasi sinergidlar deyiladi</p> <p>4. Urug` kurtakdagи nutsellus ichida murtak xaltacha bo`lib, bu yerda urug`lanish sodir bo`ladi</p> <p>5 Ikkinci sperma esa markaziy hujayraning yadrosi bilan qo`silib, triploid xromasomali hujayrani hosil qiladi</p> <p>6. Urug`kurtak qopcha - sida chang donachasi - ning spermalari bilan tuhum hujayra va marka ziy yadrolarning o`zaro qo`silishi urug`lanish deyiladi</p>

						<p>7. So`ngra har qaysi tomondan bittadan yadro murtak xalta- chaning markazi tomon hara - katlanib, o`zaro qo`shiladi va diploid xroma somali markaziy yadro hosil qiladi</p> <p>8. Spermalardan biri tuhum hujayraning yad – rosi bilan birikadi va diploid xromosomali urug` murtagini vujudga keltiradi</p> <p>9. Bu hajayradan keyinchalik urug` ning oziq moddalar to`p- lovchi to`qimasi urug` endospermi rivojlanadi.</p>
--	--	--	--	--	--	---

Bu treningda – talabalarni guruhlarga bo`lib, material tarqatiladi. Guruh talabalari ketmaket yozilgan, chalkashtirilgan jumlalarni to`g`iri holatda joylash tirilishlari kerak. Avvalo to`g`iri deb hisoblangan jumla raqamini, tablitsadagi “Yakka baho” grafasiga yozib chiqadi. So`ngra o`qituvchi tomonidan to`g`iri javob aytilgandan so`ng, noto`g`ri raqamlarni “yakka xato” grafasiga yoziladi. Hisoblangandan keyin “guruh bahosi” grafasi o`qituvchi tomonidan belgilanadi.

Vertushka metodi

Bu treningda guruhlarga material tarqatiladi va har bir guruuh yakka holda to`g`ri javobni belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi. Guruhlar soniga qarab aylangandan keyin, o`qituvchi talabalar bilan umumiy to`g`ri javobni belgilaydilar.

Gulning kelib chiqish nazariyalari						
N _o	Gulning kelib chiqishi haqida malumot	Strobilyar nazariyasi	Evant nazariyasi	Melvilning gonofill nazariyasi	Telom nazariyasi	Psevdativ nazariyasi
1	Gul – nina bargli o`simliklar qubbasiini o`zgarishi natijasida vujudga kelgan.					
2	Gul – metamorfoz – lashgan (shakli o`z -gargan) novda barg					
3	Gulning hamma qismlari tanalardan ya`ni renofitlarga hos bo`lgan silindrik tuzulishlardan vujudga kelgan					
4	Gul – shakli o`zgar gan to`p gul hisoblanadi					

Bumerang metodi

Bu metodda – talabalar kichik guruhlarga bo`linadi. O`qituvchi har bir guruhga vazifa yozilgan material tarqatadi. Har bir guruh talabalari berilgan vazifa bo`yicha o`z fikrlarini bayon qiladi va undan so`ng guruhlar orasida savol—javob ketadi.

1 – guruhga beriladigan vazifa

1. Yopiq urug`li o`simliklarga tasnif
2. Gulning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar

2 – guruhga beriladigan vazifa

1. Gul deb nimaga aytildi va u qanday vazifani bajaradi
2. Gul qismlari ularning (lotincha nomlari)
3. Oddiy va murakkab gulqo`rg`on

3 – guruhga beriladigan vazifa

1. Chang vazifasi ichki va tashqi tuzulishi
2. Urug`chi vazifasi ichki va tashqi tuzulishi
3. Tugunchaning gul o`rnida joylashishi

4 – guruhga beriladigan vazifa

1. Changlanish va uning xillari
2. Urug`lanish jarayoni

Keys

Bizga ma'lumki gulning urug`chisi biomorfogeneziga ko`ra monokarp, apokarp, senokarp va psevdomonokarp tuzilishga bo`linadi. Monokarp tuzilishi bitta mevachibargdan hosil bo`ladi va gulda bitta bo`lishi bilan xarakterlanadi. Urug`chisi monokarp tuzilishga ega bo`lgan o`simliklarga o`rik, shaftoli, olxurilarni misol keltirishimiz mumkin. Bu o`simliklar bir danakli bo`lishi bilan farq qiladi. Bundan tashqari dukkanakdoshlar oilasi vakillarining urug`chisi ham monokarp tuzilishga ega. Ammo ularning ba`zi vakillari ko`p urug`li bo`ladi masalan loviya, mosh, akatsiya. Nima uchun dukkanakli o`simliklar urug`chisi bitta bo`lishiga qaramay ko`p urug` hosil qiladi.

Keysni bajarish bo`yicha topshiriqlar:

1. Gulning tuzilishini tavsiflab bering
2. Urug`chi tuzilishini, qanday qismlardan tashkil topganligini tushuntiring
3. Monokarp, apokarp, senokarp, psevdomonokarp urug`chilarni bir biridan farqini izohlang va jadvalni to`ldiring
4. Urug`ni hosil bo`lishi urug` kurtaklar soniga bog`liqligini tushuntiring

monokarp	apokarp	senokarp	psevdomonokarp

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1 – tajriba: - Tablitsa, gerbariy va jonli o`simlik gullaridan foydalanib, qismalarni aniqlang

- a) gul bandi
- b) gul o`rni
- v) gul kosacha barg
- g) gul toji barg
- d) otaliklar
- e) onaligi va gul tuguni joylanishi

2 – tajriba: - Toj bargning xillari, to`g`iri va qiyshiqligini o`rganib rasmini albomga chizib, nomlarini yozish

3 – tajriba: - Ko`ndalang va uzunasiga kesilgan gul diagrammasini o`rganib, rasmini chizib nomlarini yozish

Topshiriqlar: - 1. Gul qisimlarini rasmini chizib lotincha nomlarini yozing
 2. Turli hildagi gullarni gul formulasini yozish, diagrammasini chizish
 3. Tablitsadan qo`shaloq otalanishni o`rganib, ochiq urug`lillardagi otalanishdan farqini ajratib, rasmini chizib qismlarini nomini yozish

7. Kutiladigan natijalar

O`qituvchi

Talaba

a) Mavzu bo`yicha maqsadni olish

Tushuntirish

b) Talabalarda qiziqish uyg`otish

v) Yangi texnologik usullarni qo`llash

a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot

olish

b) Talabalar bilimini shakllantirish

v) Talabalar qiziqish bilan qabul qilishi


8. Kelgusi rejalar

- a) O`qituvchi internetdan yangi material olish uchun foydalanishni ishlashi
mukammallashtirish
- b) Yangilash va joriy etish
- v) Kasbiy tayyorgarlikni yondashuvi insonparvarlashtirish
- a) Talaba ushbu materiallarni o`zlashtirish, Mustaqil
- b) Adabiyotlar bilan ishslash
- v) Yangi texnologiyaga




Gulning tuzilishi va diagrammasi

1- gul bandi, 2- gul orni, 3- kosacha bargi, 4- toj bargi, 5- changchisi, 6- urugchisi, 7- gul tag bargchasi, 8- gul oqi, 9- barg plastinkasi.




Gultoj barglari birlashgan gullar

A- gildiraksimon, B- voronkasimon, V- qongiroqsimon, G- naychasimon, D- uchi naychasimon qayrilgan, E- qalqonsimon, J- tilsimon, Z- labsimon, 1- naysimon qismi, 2- qayrilgan qismi.




Har xil tuzilishdagi changchilar

A- torttasi yaxhi taraqqiy etgan (krestguldoshlarda), B- ikkitasi yaxshi taraqqiy etgan (labguldoshlarda), V- ikki guruhli (dukkakdoshlarda), G- changdonlari birlashgan (murakkabdoshlar).



Har xil tuzilishdagi urugchilar

A,B,V- turli shaklda birlashgan (sinokarp), G- birlashmagan (apokarp). 1- tuguncha, 2- ustuncha, 3- ogizcha.



Qosh urug'lanish

1- gulning tuzilishi, 2- changchnining tuzilishi, 3- urugchi tuguni va urug kurtagining tuzilishi, 4- urug, 5- yangi maysa.

Mavzu: To`pgullar va ularning xillari

1. Darsning mazmuni:

O`simliklarning guli yakka – yakka joylashishidan tashqari to`p-to`p bo`lib ham joylashgan bo`ladi. To`p gul deb mayda gullarning yig`indisiga aytildi. Tabiatda yakka gulgarda qaraganda to`p gullarning ahamiyati katta.

To`p bo`lib birikkan mayda gullar aniq ko`rinib turadi va hashoratlarni o`ziga ko`proq jalg qiladi. Ular chetdan changlanadi, natijada hosildorlik yanada oshadi. Bundan tashqari to`p guldagagi gullar, odatda bir tekis ochilmaydi va sharoit noqulay bo`lib qolsa, ularning bir qismigina nobud bo`ladi. Gul o`qida gullarning joylanishiga qarab, to`p gullar ikki guruuhлага bo`linadi.

Gul o`qida gullarning joylashishiga qarab, to`pgullar ikki guruuhga bo`linadi:

1. Botrioid – aniq bo`lmagan, o`sishi chegaralanmagan, yon novdalari ham aniq emas (yunoncha “botrion” –shingil). Shuning uchun ham ko`pincha noaniq, deb yuritiladi. Botrik to`pgullarda asosiy o`q aniq shakllanganbo`ladi va gullar pastdan yukoriga karab *akropetal* navbat bilan ochiladi.

Botrik to`pgullar oddiy va murakkab tuzilishli bo`ladi. Oddiy botrik to`pgullar shoxlanmaydi va gullari asosiy(markaziy) o`qda joylashgan bo`ladi.

Oddiy monopodial to`pgullarga: shingil, boshoq, kuchala, soyabon, qalqon, ro`vak, asosiy gul o`qi qisqarib yo`g`onlashgan to`pgullarga so`ta boshcha va savatcha kiradi. Murakkab monopodial to`pgullar oddiy monopodial to`pgullarning yig`indisidan tashkil topgan. Ularga murakkab shingil, boshoq, soyabon va qalqonlar kiradi.

2. Simoz - to`pgullarning o`sishi chegaralangan. Bu to`pgullaraniq to`pgullar hisoblanadi. Chunki novdalarning soni va ularning joylashishi har bir tur yoki avlod uchun xarakterli belgidir. Botrik to`pgullardan farqli ravishda simoz to`pgullarda markaziy o`q aniq shakllangan bo`lmaydi. Gullar yuqorida pastga yoki markazdan chetga qarab, ya`ni *bazipetal* ravishda ochila boradi. Simoz to`pgullar monoxazi, dixazi va pleyoxazi bo`ladi.

2. Darsning maqsadi:

To`pgul va ularning xillari. Oddiy to`pgullar, murakkab to`pgullar, shoxlanishiga qarab, monopodial va simpodial to`pgullar, tabiatda uchrashi, biologik va tibbiyotdagi ahamiyatini o`rganish

3. O`quv jarayoning mazmuni:

1. To`pgul deb nimaga aytildi
2. To`pgulning biologik ahamiyati
3. To`pgullar necha guruuhga bo`linadi
4. Oddiy monopodial to`p gul deb qanday to`pgullarga aytildi

5. Murakkab monopodial yoki botrik to`pgullar deb qanday to`pgullarga aytildi ?
6. Simpodial yoki simoz (aniq) to`pgul deb qanday to`pgullarga aytildi?
7. Botrik to`pgullar simoz to`pgullardan qanday farq qiladi
8. Simoz va botrik to`pgullar qanday o`simliklarda uchraydi
9. To`pgullarning tibbiyotda va xo`jalikdagi ahamiyati

4. O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini, va umumiy baholash

5. Metod – Vertushka, Klaster

Vertushka metodi

Bu treningda guruhlarga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda to`g`ri javobni belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi. Guruhlar soniga qarab aylangandan keyin, o`qituvchi talabalar bilan umumiy to`g`ri javobni belgilaydilar.

N _o	To`pgul haqida ma`lumotlar	Shin gil	Qal- qon	Boshoq	Soyabon	Boshcha	Savatcha	So`ta
2	To`pgulning o`qida gullari bandsiz joylashgan Gul o`rni juda qalinlashgan va kengaygan bo`lib likop chani eslatadi, unda bandsiz gullar g`uj joylashib turadi.							
3	Gul o`qi qisqarib yo`g`onlashgan bo`lib gullar bandsiz joylashgan, shakli boshchaga o`hshash							
4	Sirg`asimon to`pgulning o`qi osilib turadigan shingilga o`hshash							
5	To`pgulning asosiy o`qi, qisqargan gul bandi bir hil uzunlikda bo`lib, gullari bir nuqtada o`rnashgan.							
6	Ostki gullarning gul bandi ustki gullarga qaraganda uzun bo`ladi va teng sathni egallaydi.							
7	To`p gulning o`qida gullari gul bandi bilan joylashgan, gullari pastdan yu-qoriga qarab birin ketin ochiladi							

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar va ishlash tartibi

Ishlash tartibi

1-tajriba:- Oddiy monopodial to`pgullar:

1. Boshqoq – zubturum o`simligida
 2. Kuchala, sirg`asimon – yong`oqning erkak gulida
 3. So`ta – makkajo`xori gulida
 4. Shingil – karamgullilar oilasi vakillarida
 5. Qalqon – olma, nok gullarida
 6. Soyabon – selderguldoshlar oilasi vakillarida
 7. Boshcha – sebarga o`simligida
 8. Savatcha – kungaboqar, bo`tako`z o`simligida
- O`simliklarni gerbariy va tablitsadan o`rganiladi

2-tajriba: - Murakkab monopodial to`pgullar:


1. Murakkab boshoq – bug`doy, arpa o`simligida
 2. Murakkab soyabon – seldergullilar oilasi vakillarida
 3. Ro`vak – murakkab shingil – sholi qo`ng`ir bosh o`simligida
- O`simliklarni gerbariy va tablitsadan o`rganiladi.

3-tajriba:- Simpodial to`pgullar:

- a) monoxaziy – gajak, ilonizi – mingdevona,
kampirchopon o`simligida
 - b) dixaziy – chinnigullilar oilasi vakillarida
 - v) pleyoxaziy – sutlamadoshlar oilasi vakillarida
- O`simliklarni gerbariy va tablitsadan o`rganiladi.

Topshiriq: to`p gullarni gerbariy va tablitsadan o`rganib rasmlarini albomga chizish

To'pgullarga oid klaster




7. Kutiladigan natijalar

- | | |
|--|---|
| O`qituvchi | Talaba |
| g) Mavzu bo`yicha maqsadni
Tushuntirish | a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot olish
olish |
| h) Talabalarda qiziqish uyg`otish | b) Talabalar bilimini shakllantirish |
| v) Yangi texnologik usullarni
qo`llash | v) Talabalar qiziqish bilan
qabul qilishi |

8. Kelgusi rejalar

- | | |
|--|---|
| 1 O`qituvchi internetdan yangi
material olish uchun foydalanishni
mukammallashtirish | a) Talaba ushbu materiallarni
o`zlashtirish, Mustaqil ishlashi |
| 2. Yangilash va joriy etish | b) Adabiyotlar bilan ishlash |
| 3. Kasbiy tayyorgarlikni
insonparvarlashtirish | v) Yangi texnologiyaga yondashuvi |




Monopodial oddiy topgullar

1-shingil, 2- qalqon, 3- boshoq, 4- soyabon, 5- boshcha, 6- savatcha, 7- sota.



Monopodial murakkab topgullar

1- murakkab boshoq, 2- kuchala, 3- murakkab soyabon, 4- rovak yoki murakkab shingil, 5- boshoqsimon rovak.



Simpodial topgullar

1- dixaziy, 2- changaksimon, 3- pleyoxaziy.

Laboratoria mashg`ulot – 25

Mavzu: Meva, uning xillari. Urug`ning tuzulishi.

1. Darsning mazmuni:

Gulda urug`lanish sodir bo`lgach, meva hosil bo`ladi. Meva urug`ning hosil bo`lishida, uni himoya qilish va tarqalishida ahamiyati katta. Mevaning morfologik asosi, dastlab urug`chi tuguni hisoblanadi. Gulning qolgan qismlari, ya`ni gulqo`r-g`oni va changlari so`lib qoladi. Tugunchada kuchli o`zgarish sodir bo`lishi natija – sida tuguncha kattalashadi. Tugunchadagi hujayra har xil plastik va energetik mod – dalar: oqsil, kraxmal, glyukoza, yog` va vitaminlar hosil bo`ladi.

Har xil o`simliklarning mevasi yirik – maydaligi, tashqi ko`rinishi rangi, qattiq – yumshoqligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Kelib chiqishiga ko`ra mevalar: haqiqiy, sohta, oddiy, murakkab, to`pmevaga bo`linadi. Haqiqiy mevalar faqat onalik tugunchasining o`sishidan, soxta mevalar esa onalik tugunchasining o`zidagina emas, balki ko`pincha juda o`sib ketgan gulqo`rg`on va kosachanening ham ishtroki bilan hosil bo`ladi. Olcha, o`rik mevalari haqiqiy mevalar, qulupnay, na`matak, olma mevalari soxta mevalar hisoblanadi.

Agar gulda bitta onalik bo`lib, meva uning tugunchasidan vujudga kelsa, oddiy meva deyiladi (o`rik, olcha, gilos). Murakkab soxta meva bitta gulning bir nechta onaligi ishtirokida hosil bo`ladi (malina, maymunjon). To`pmeva gullari juda zinch joylashgan, keyinchalik mevalari ham qo`shilib o`sgan to`pguldan hosil bo`ladi. Tuzilishiga qarab: quruq va ho`l mevaga bo`linadi. Quruq mevalarning meva qati quruq, qalin va yog`ochsimon bo`ladi, ba`zan esa po`choqqa o`xshaydi. Ho`l mevalarning meva qati seret, sersuv, ko`pincha rangli bo`ladi.

Urug` gulli o`simliklarni ko`payishi va tarqalishi uchun hizmat qiladi. U murtak, g`amlovchi to`qima, urug` po`stidan tashkil topadi. Urug` tiplari quyidagicha bo`ladi: perispermli, endospermsiz, endospermli.

2.Darsning maqsadi:

Meva, uning tuzilishi, mevaning paydo bo`lishiga qarab turlarga quruq va ho`l mevalarga bo`linishi, urug`ning tuzilishi va paydo bo`lishi, urug` qislari oziqli moddalarni to`planishiga qarab nomlanishi, unib chiqishi uchun kerak bo`ladigan sharoitlarni o`rganish. Meva, urug`larini tabiatda tarqalishi uchun bo`lgan moslamalarni o`rganish.

3. O`quv jarayoninig mazmuni:

1. Meva gulning qaysi qismidan hosil bo`ladi?
2. Meva nechta qismdan tuzilgan?
3. Oddiy meva murakkab mevadan qanday farq qiladi?
4. Mevalar nech xil bo`ladi?

5. Ho`l va quruq mevalarning bir-biridan farqi?
6. Pishganda ochiladigan va ochilmaydigan quruq mevalar va ularning farqlari.
- 7 Rezavor va danakli ho`l mevalar.
8. Dukkak va qo`zoqning farqi nimada qanday meva, soxta meva deyiladi?
9. Murakkab meva bilan to`p mevaning qanday farqi bor?
10. Urug` qanday vujudga keladi?
11. Urug` qanday qismlardan tashkil topgan?
12. Qanday urug`lar endospermli va qanday urug`lar endosperimsiz urug`lar deyiladi?
13. Urug` palla qanday vazifani bajaradi?
14. Murtak necha qismdan iborat?
15. Urug`ni unib chiqishi uchun qanday sharoitlar kerak?
16. Urug`lar necha kunda unib chiqadi?
17. Urug` va mevalar tabiatda qanday yo`l bilan tarqaladi?
18. Ularning tarqalishi uchun qanday mahsus moslamalar paydo bo`lgan

4.O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a)Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy mulyaj, tayyor perparat
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini va umumiy baholash

5. Metod – Vertushka

Metod – Vertushka metodi

Nº	Mevalar klas-sifikatsiyasi	Rezavor meva	Sohta meva	Pishgan-da ochiladigan quruq meva	Danakli meva	To`p meva	Pishganda ochilmay-digan quruq meva	Chin meva
1	Bargak							
2	Olma, behi							
3	Yong`oq							
4	Xakalak							
5	Bodring							
6	Qulupnay							
7	Don							
8	Apelsin							
9	Gilos, o`rik							
10	Pista							
11	Murakkab yong`oqcha							
12	Malina							
13	Pomidor							
14	Ko`sak							
15	Qo`zoq, qo`zoqcha							
16	Dukkak							
17	Qanotli meva							
18	Tut, anjir							
19	Anor							

Bu treningda guruhlarga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda to`g`ri javobni belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi. Guruhlar soniga qarab aylangandan keyin, o`qituvchi talabalar bilan umumiy to`g`ri javobni belgilaydilar.

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ishlash tartibi

- 1 – tajriba: - Pishganda ochilmaydigan quruq mevalar: yong`oq, yong`oqcha, don, hakalak, qanotli, ikki qanotli, pista, murakkab yong`oqcha, pistachani gerbariy, tablitsadan o`rganish

2 – tajriba: - Pishganda ochiladigan quruq mevalar: qanotli murakkab
Qanotli, dukkak, qo`zoq, qo`zoqcha, bo`g`inli qo`zoqlarini
gerbariy, tablitsadan o`rganish

3 – tajriba: - Bir urug`li va ko`p urug`li ho`l mevalar: olcha, gilos, rezavor
mevalar, pomidor, uzum, malina, qulupnayni, gerbariy,
tablitsadan o`rganish

4 – tajriba: - Endospermli, perispermli va pallali urug`larni preparat,
tablitsalardan o`rganish

Topshiriq: - Mevalarning klasifikatsiyasiga va urug` tuzilishiga oid
rasmlarni albomga chizish.

7. Kutiladigan natijalar

O`qituvchi


- a) Mavzu bo`yicha maqsadni
Tushuntirish
- b) Talabalarda qiziqish uyg`otish
- v) Yangi texnologik usullarni
qo`llash

Talaba

- a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot
olish
- b) Talabalar bilimini shakllantirish
- v) Talabalar qiziqish bilan
qabul qilishi


8. Kelgusi rejalar

- a) O`qituvchi internetdan yangi
material olish uchun foydalanishni
mukammallashtirish
- b) Yangilash va joriy etish
- v) Kasbiy tayyorgarlikni
insonparvarlashtirish
- a) Talaba ushbu materiallarni
o`zlashtirish, Mustaqil ishlashi
- b) Adabiyotlar bilan ishlash
- v) Yangi texnologiyaga yondashuvi




Bir urugli ochilmaydigan quruq mevalar

A,D- yongoq meva, B- yongoqcha meva, V- don meva, G- pista meva,
E, J- qanotli mevalar.




Ko'p urug'li ochiladigan quruq meva

A- bargli meva, B- murakkab bargli meva, V- dukkak meva, G- quzoq, D- quzoqcha,
E, J, Z- kosak meva.




Tutning mevasi

A-onalik topguli, B- top meva, V- gulning kondalang kesimi.



Mevalarning tarqalishiga moslashuvi

1- chalov, 2- qoqi, 3- joka, 4- zarang, 5- boztikan, 6-xebalak, 7- temirtikan,
8- qoytikan, 9-qariqiz.



Ho'l mevalar

A, B- danak meva, V- malinaning murakkab danak mevasi. 1- ekzokarp, 2- mezokarp,
3-endokarp.

Laboratoriya mashg`ulot-26

Mavzu: Magnoliyadoshlar, ayiqtovondoshlar, zirkdoshlar oilasi

1 Darsning mazmuni:

Magnoliyadoshlar - Magnoliaceae bu oilaga barglarini to‘kadigan yoki doimiy yashil daraxt va butalardir. Ularning barglari navbatlashib joylashgan, oddiy, chetlari tekis yoki uyiqli bo‘ladi. Magnoliyadoshlarning ba’zilari, ikkilamchi yog‘ochligida suv naylarini o‘rniga ochiq urug‘lilarniki kabi traxeidlardan iborat. Po‘stlog‘ida va bargning parenximatik to‘qimalarida efir moyli ichki bezchalar mavjud. Bu oila vakillarining gullari yirik, ikki jinsli, aktinomorf tuzilgan. Gulqo‘rg‘on bargchalari kosacha va toj barglari yaxshi ajralmagan, 6 tadan 12 tagacha, ba’zan bundan ham ko‘p, spiral yoki 3 doira bo‘lib, joylashadi. Changchilari cheksiz, spiral yoki doira bo‘lib joylashib, changchi iplari yassi, changdonlari uning uchidan pastroqda joylashgan bo‘ladi. Gulqo‘rg‘oni bo‘rtgan, konussimon, urug‘chisi apokarp, ba’zan senokarp. Tugunchasi ustki, bir uyali. Mevasi qorin chokidan chatnaydigan ko‘sakcha yoki yong‘oqchadan iborat, konussimon to‘pmevaga uxshash. Urug‘i endospermli. Magnolidoshlar oilasiga 100 turni o‘z ichiga olgan eng qadimgi oilalardan bo‘lib, uning vakillari tropik va subtropik mintaqalarda uchraydi. O‘rta Osiyo respublikalarida manzarali o‘simlik sifatida – yirik gulli magnoliya – Magnoliya grandiflora va lola darahti – Liriodendron tulipifera ekib o‘stiriladi.

Ayiqtovondoshlar- Ranunculaceae oilasi 200 dan ortiq turni o‘z ichiga olib, vakillari bir va ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Barglari oddiy, poyaga ketma-ket, qarama-qarshi yoki hamma barglari ildiz oldida joylashgan. Gullari ikki jinsli, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri. Gulqo‘rg‘oni oddiy yoki murakkab. Botrik va simoz to‘pgullarga to‘plangan. Kosacha va tojbarglari asosan 5 tadan, ba’zan 3-20ta. Tojbarglarning ostki qismida nektardonlar rivojlangan. Changchilari cheksiz, urug‘chilari cheksiz yoki bitta bo‘lishi mumkin. Apokarp tipda tuzilgan. Mevasi yong‘oqcha, ko‘sakcha, ba’zan rezavor meva, urug‘lari yog‘li, endospermli. Bu oilaning vakillari alkaloid va glikozidlarga boy bo`lgani uchun zaharli hisoblanadi.

Zirkdoshlar – Berberidaceae bu oilaning vakillari turli xil hayotiy shakllarga ega bo‘lib, bir va ikki pallali o‘simliklarning belgilarini o‘zida mujassam etgan. Barglari oddiy va murakkab, ketma-ket joylashgan. Gullari to‘g‘ri, asosan ikki jinsli, yakka yoki shingil to‘pgulga yig‘ilgan. Gulqo‘rg‘on qismlari doira bo‘lib joylashgan. Zirkdoshlar oilasiga **12** avlod, **200** tur kiradi. O‘zbekistonning tog‘li yerlarida 3 avlod, 8 turi uchraydi. Shundan 4 turi bizda ekib o‘stiriladi.

2 . Darsning maqsadi

Magnoliyadoshlar, ayiqtovondoshlar, zirkdoshlar oilalarining umumiy harakterli belgilari, o‘simliklarning hayotiy formalari, tarqalish areali, oila vakillari, organlarining tuzilishi, tibbiyotda va xo`jalikdagi ahamiyatini o`rganish.

3. O`quv jarayoning mazmuni:

1. Magnoliyadoshlar oilasiga xarakteristika
2. Yirik gulli Magnoliya (*M.grandiflora*) o`simligining tuzilishi, ahamiyati
3. Lola daraxti (*L. tulipifera*) o`simligining tuzulishi, ahamiyati
4. Ayiqtovondoshlar oilasining xarakterli belgilari
5. Ayiqtovon avlodiga kiradigan o`simliklar, tuzulishi ahamiyati
6. Akonitlar avlodiga kiradigan o`simliklar tuzulishi, ahamiyati
7. Adonis avlodiga kiradigan o`simliklar
8. Zirkdoshlar oilasiga xarakteristika

4. O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Bumerang, Vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini, va umumiy baholash

5. Metod – Vertushka, Bumerang

Vertushka metodi

N _o	O`simliklar oilalari	Magnoliyadoshlar	Ayiqtovondoshlar	Zirkdoshlar
1	Uxlatuvchi ko`knori – Papaver somniferum			
2	Akonit – Aconitum songariicum			
4	Dala ayiqtovoni – Ranunculus arvense			
5	Yirik gulli magnoliya – Magnoliya grandiflora			
6	Qizg`aldoq – Roemeria refracta			
7	Bahorgi Adonis – Adonis vernalis			
8	Qora zirk - Berberis oblonga			
9	Loliadendron tulipifera			
10	Oddiy zirk - Berberis vulgaris			

Bumerang metod

Talabalar kichik 1 necha guruhlarga bo`linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bitta guruh o`z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar orasida savol javob ketadi.

I – guruh vazifasi


- 1.Magnoliyadoshlar oilasining umumiyl belgilari
- 2.Yirik gulli magnoliya – (M. grandiflora) tuzilishi, ahamiyati
- 3.Lola daraxti (L. tulifera) – tuzulishi ahamiyati

I I – guruh vazifasi

- 1.Ayiqtovondoshlar oilasiga xarakteristika
- 2.Ayiqtovon o`simligi tuzulishi, ahamiyati
- 3.Bahorgi adonisi o`simligi tuzulishi, ahamiyati

I I I – guruh vazifasi

1. Zirkdoshlar oilasiga xarakteristika
2. Qora zirk o`simligi tuzulishi
3. Ushbu o`simliklarning ahamiyati



Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ob`ektlarni o`rganish.

- 1) Lola daraxti o`simligi gerbariyidan foydalanib, gulining tuzulishini o`rganish.
- 2) Ayiqtovondoshlar oilasining o`ziga hos belgilarini
 - a) Gulining formulasi va diagrammasini, muhim ahamiyatga ega bo`lgan vakillarini o`zbekcha va lotincha nomlarini o`rganish
- 3) Ayiqtovon o`simligini o`rganish vaqtida quyidagilarga ahamiyat bering:
 - a) ildizi sochma ildiz
 - b) bargining tomirlanishi – to`rsimon
 - v) guli va mevasining tuzilishi
- 4) Djungar parpsi – Akonit (Aconitum) o`simligining tuzilishini o`rganish
- 5) Zirkdoshlar oilasiga mansub bo`lgan o`simliklarni
 - a) Qora zirk - Berberis oblonga L.
 - b) Oddiy zirk - Berberis vulgaris

Topshiriq: Yuqoridagi keltirilgan oila o`simliklarni albomga rasmi ishlanib, ildiz, poya, barglari, gul formulasi va qismlari yozib qo`yilsin

7. Kutiladigan natijalar

O`qituvchi

- a) Mavzu bo`yicha maqsadni Tushuntirish
- b) Talabalarda qiziqish uyg`otish
- v) Yangi texnologik usullarni qo`llash


Talaba

- a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot olish olish
- b) Talabalar bilimini shakllantirish
- v) Talabalar qiziqish bilan qabul qilishi

8. Kelgusi rejalar


- a) O`qituvchi internetdan yangi material olish uchun foydalanishni mukammallashtirish
- b) Yangilash va joriy etish
- v) Kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish

- a) Talaba ushbu materiallarni o`zlashtirish, Mustaqil ishlashi
- b) Adabiyotlar bilan ishslash
- v) Yangi texnologiyaga yondashuvi




Magnoliyadoshlar. Magnoliya kembella. (*Magnolia campbellii*)

A- gul tuzilishi, B- changdon, V- novdadagi kop bargli meva.



Ayiqtovondoshlar. Zaharli ayiqtovon (*Ranuculus sceleratus L.*)

A- umumiy ko'rinishi, B- toj barg, V- gulqorgonsiz gul, G- meva(yongoqcha), D- gul diagrammasi, E- urug kurtagi. 1- nektardon, 2- changchisi, 3- urugchisi.



Dorixona parpisi (*Aconitum hapellus* L.)

A- gulli novda, B- gul, V- urugchisi, G- urugchi tugunchasining kondalang va uzunasiga kesimi, D- changchisi, E- gul diagrammasi, J- meva (bargcha toplami). 1- nektardon.

Mavzu: Ko`knoriguldoshlar, karamguldoshlar va gulhayridoshlar oilasi

1 Darsning maqsadi:

Ko`knoriguldoshlar -Papaveraceae oilasi vakillari bo‘g‘imli sutli hujayralari bo‘lib, bir va ko‘p yillik o‘tlardir. Barglari yon-bargsiz, patsimon qirqilgan, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari yakka gulli yoki to‘pgulli. Aktinomorf, ba’zan zigomorf. Kosachabarglari 2 ta, tojbarglari 4-6 ta bo‘lib, doirasimon joylashgan. Kosachabarglari faqat g‘unchaligidagina bo‘ladi, guli ochilishi bilan tezda tushib ketadi. Changchilar soni 2-4 ta, yoki cheksiz. Urug‘chisi 2 ta yoki bir qancha mevabargli, senokarp tipida,tugunchasi ustki bir uyali, mevasi ko‘p urug‘li ko‘sakcha. Bu oilaga 29 avlod, 600 ta tur kiradi. Bu turlar Sharqiy Osiyo, Janubiy Afrika, O‘rta Yer dengizi atroflari va Shimoliy Amerikada tarqalgan. O‘zbekiston florasida 9 avlod va 31 turi uchraydi.

Gulhayridoshlar -Malvaceae oilasiga o‘t, buta va daraxtsimon o‘simliklar kiradi. Barglari oddiy, uzun bandli, butun yoki o‘yilgan, panjasimon tomirlangan. Gullari barg qo‘ltig‘idan yoki shoxlarining uchidagi to‘pgullarda to‘planadi, aktinomorf, ikki jinsli, yirik va uzunbandli, qo‘shgulqurg‘onli, kosachabarglari 5 ta, qo‘shilib o‘sgan, odatda 3 ta bargchadan iborat, ostki kosachali. Gultoji 5 ta, qo‘shilib o‘smagan. Changchilari ko‘p bo‘lib, ikki doirada joylashadi. Tashqi doirada 5 ta changchi bo‘lib, reduksiyalangan, ichki doirasidagi changchilari esa cheksiz sonda bo‘ladi. Urug‘chisi uch va undan ko‘p mevachibarglardan tashkil topgan, tugunchasi ustki, tojibarglarning asosida nektardonlar mavjud. Mevalari quruq, ko‘p urug‘li ko‘sakchalardan yoki bitta urug‘li yong‘oqchalardan iborat. Gulhayrilar oilasiga kiradigan o‘simliklarning ayrim turlari amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Masalan g‘o‘za avlodi.

Karamguldoshlar -Brassicaceae oilasiga o`tsimon, bazan chala butalar kiradi. Barglari oddiy, navbat bilan joylashadi. Gullari to`g`ri, 2 jinsli shingil yoki ro`vak shaklida. Gulkosachasi to`rtta kosachabargdan, gultojsi qarama - qarshi butsimon joylashgan to`rtta tojbargdan tuzilgan. Changchisi oltita, ikkitasi qisqa, to`rttasi uzun bo`ladi.

2 .Darsning maqsadi

Ko`knoriguldoshlar, gulhayridoshlar va karamguldoshlar oilalarining umumiy harakterli belgilari, o`simliklarning hayotiy formalari, tarqalish areali, oila vakillari, organlarining tuzilishi, tibbiyatda va xo`jalikdagi ahamiyatini o‘rganish.

3. O`quv jarayoning mazmuni:

1. Ko`knoriguldoshlar oilasining umumiy xarakterli belgilari
2. Ko`knori va Roemeriya avlodlariga kiradigan o`simliklar va ularning

tibbiyotdagi ahamiyati

3. Gulhayridoshlar oilasining umumiy xarakterli belgilari
4. G`o`za va gulhayri o`simligining tuzilishi, yashash sharoiti
5. Bu oilaga mansub o`simliklarning xo`jalikdagi va tibbiyotdagi ahamiyati
6. Karamguldoshlar oilasining o`ziga xos xarakterli belgilari
7. Bu oilaga kiradigan avlod va turlar xilma-xilligi
8. Karam, jag` - jag` o`simliklarning tuzilishi
9. Bu oilaga kiradigan madaniy, dekorativ, begona o`t turlari

4. O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Bumerang, Vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko`rish)
- j) Baholash – o`z – o`zini va umumiy baholash

5. Metod – Vertushka, Bumerang, Venn diagrammasi

Vertushka metodi

N _o	O`simliklar oilalari	Ko`knori-guldoshlar	Karam-guldoshlar	Gulhay-ridoshlar
1	G`o`za – Gossypium			
2	Qurtana – Sisymbrium			
3	Uxlatuvchi ko`knori – Papaver somniferum			
4	Tugmachagul – Malva neglecta			
5	Gorchitsa – Sinapis			
6	Qizg`aldoq – Roemeria refracta			
7	Bahorgi Adonis – Adonis vernalis			
8	Jag` - jag` - Capsella bursa pastoris			
9	Gulhayri – Altea officinalis			
10	Karam – Brassica olerasia			

Bumerang metod

Talabalar kichik 1 necha guruhlarga bo`linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bitta guruh o`z fikrlarini bayon qiladi va guruhrilar orasida savol javob ketadi.

I – guruh vazifasi

1. Ko`knoriguldoshlar oilasiga xarakteristika
- 2.Uxlatuvchi ko`knor o`simgili tuzulishi
3. Qizg`aldoq- Roemeria o`simgili tuzulishi

I I – guruh vazifasi


1. Karamguldoshlar oilasiga xarakteristika
2. Bu oilaga kiradigan sabzavot va begona o`t turlari
3. Tibbiyotda qo'llanadigan turlari

I I I – guruh vazifasi

1. Gulhayridoshlar oilasiga xarakteristika
2. Dorivor gulhayri o`simgili tuzulishi
3. G`o`za o`simgili tuzulishi, ahamiyati

Venn diagrammasi

Karamguldoshlar, ko`knoridoshlar, gulhayridoshlar oilasi vakillarining o`xshash va farqli belgilarini yozing.



6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ob`ektlarni o`rganish.

- 1) Ko`knoriguldoshlar oilasiga mansub bo`lgan o`simliklarni gerbariyidan foydalanib, gulining tuzulishini o`rganish.
 - a) Uhlatuvchi ko`knor – Papaver somniferum L.
 - b) Tovus ko`knorisi – Papaver pavonium L.
 - v) Lolaqizg`aldoq - Roemeria refracta L. belgilarini o`rganish
- 2) Karamguldoshlar oilasiga mansub o`simliklarning o`ziga hos belgilarini gulining formulasi va diagrammasini, muhim ahamiyatga ega bo`lgan vakillarini o`zbekcha va lotincha nomlarini o`rganish
- 3) Gulhayridoshlar oilasiga mansub bo`lgan o`simliklarni gerbariyidan foydalanib, gulining tuzulishini o`rganish.

Topshiriq: Yuqoridagi keltirilgan oila o`simliklarni albomga rasmi ishlanib, ildiz, poya, barglari, gul formulasi va qismlari yozib qo`yilsin

7. Kutiladigan natijalar

O`qituvchi

- a) Mavzu bo`yicha maqsadni Tushuntirish
- b) Talabalarda qiziqish uyg`otish
- v) Yangi texnologik usullarni qo`llash


Talaba

- a) Mavzu bo`yicha to`la ma`lumot olish olish
- b) Talabalar bilimini shakllantirish
- v) Talabalar qiziqish bilan qabul qilishi

8. Kelgusi rejalar


- a) O`qituvchi internetdan yangi material olish uchun foydalanishni mukammallashtirish
- b) Yangilash va joriy etish
- v) Kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish

- a) Talaba ushbu materiallarni o`zlashtirish, Mustaqil ishlashi
- b) Adabiyotlar bilan ishlash
- v) Yangi texnologiyaga yondashuvi




Koknori (*Papaver somniferum* L.)

A- osimlikning ildiz oldi va generative novdasi, B- guli, V- urugchisining tashqi va kondalang kesimi, G- gul diagrammasi, D- meva chanoq, E- urugning tashqi va kondalangiga ichki korinishi.




Poliz karami (*Brassica capitata* L.)

A- uchki kurtak (bir yillik), B- shingil (ikki yillik), V- barg, G- gul. D- urugchi, E- gul diagrammasi, J- meva (qozoq), Z- urug (umumiy ko'rinishi va kundalang kesimi, 1- nektardon.



Karamguldoshlarning meva xillari

A- qatron, B- tlasin, V- jag-jag, G- qashqarbeda, D- yovvoyi turi, E- rediska, J- rajik, Z- bryuvka.



Gozá (Gossypium)

A- generative novda, B- gul diagrammasi, V- kosak va uning kondalang kesimi. chanoq, G- urug.

Mavzu: Atirguldoshlar va dukkakdoshlar oilasi

1. Darsning mazmuni:

Atirguldoshlar (Rosaceae) oilasi daraxt, buta, ko`p yillik o`t o`simliklardan iborat. Barglar turli shakllarda oddiy, murakkab, yon bargchali. Gullari to`g`ri, 2 jinsli, murakkab gulqo`rg`onli, guldon- gipantiya ya`ni gul qismlarining gul o`rin to`qimalarni birlashishidan vujudga kelgan. Mevalari, bargmeva, ko`sak meva, yong`oq meva, pista, sohta meva, chin meva, to`p meva.

Bu oila 4 ta kenja oilaga

- a) tubulg`iguldoshlar – spiraeoideae
- b) atirgullilar – rosoideae
- v) olmagullilar – pomoideae
- g) olxo`rigullilar – prunoideae

Dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasiga- daraxt, buta, o`tsimon o`simliklar kiradi. Ba`zi vakillari tropik va subtropik iqlimli o`lkalarda uchrab, hayotiy shakllari turlicha bo`ladi. Bu oila o`simliklarning poyasi tik, yotib, ilashib, o`ralib o`suvchi, barglari murakkab, yon bargli, ba`zi vakillarida barglarning bir qismi gajakka aylangan. Barg plastinkasi kichik bo`lgan o`simliklardan bandi kengayib, filodiyga aylangan.

Dukkakdoshlar 3 ta kenja oilaga:

- a) Mimozadoshlar – Mimosoideae
- b) Sezalpindoshlar – Caesalpiniodeae
- v) Kapalakguldoshlar – Papilionatae

2. Darsning maqsadi:

Yuqorida keltirilgan oilalarning umumiy xarakterli belgilari, hayotiy formalari, tarqalish areali, oila vakillarining tuzulishi, o`ziga xos tipik belgilari, tibbiyotda va xo`jalikdagi ahamiyati.

3. O`quv jarayoning mazmuni:

1. Atirgullilar oilasining asosiy xarakterli belgilari
2. Tubulg`iguldoshlar kenja oilasining xarakterli belgilari va vakillari
